

**F.RAXMATOVA, N.EGAMBERDIYEVA,
A.BAHRIDDINOV**

**IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN
ISHLASHDA DIAGNOSTIK
METODLARDAN FOYDALANISH
YO'LLARI**

TOSHKENT

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

F.RAXMATOVA, N.EGAMBERDIYEVA,
A.BAHRIDDINOV

**IQTIDORLI O'QUVCHILAR
BILAN ISHLASHDA DIAGNOSTIK
METODLARDAN FOYDALANISH
YO'LLARI**

(Uslubiy qo'llanma)

TOSHKENT

~~19033~~
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
2015 **ToshDO'TAU**
AXBOROT-RESURS MARKAZI

19033

UO'K: 37.018.15

KBK 74.6

R-30

R-30

F. Raxmatova, N. Egamberdiyeva, A. Bahridinov.
Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda diagnostik metod-
lardan foydalanish yo'llari. –T.: «Fan va texnologiya»,
2015, 60 bet.

ISBN 978–9943–990–38–8

Mazkur uslubiy qo'llanmada iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning ijtimoiy-pedagogik tavsifai, pedagogik-psixologik o'ziga xosliklari, iqtidorli o'quvchilarni ijtimoiylashtirish mexanizmlari hamda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda diagnostik metodlardan foydalanish yo'llari yoritib berilgan.

Uslubiy qo'llanma umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari, talabalar va magistrantlar uchun mo'ljallangan. Shuningdek, qo'llanmadan o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimida ham foydalanish mumkin.

UO'K: 37.018.15

KBK 74.6

Taqrizchilar:

Nuriddin Safoyev – psixologiya fanlari doktori, professor;

Shoxida Taylanova – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Uslubiy qo'llanma Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O'quv-uslubiy Kengashining 2015-yil 14-iyundagi 11-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978–9943–990–38–8



© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2015.

SO'Z BOSHI

Respublikamiz ta'lim tizimida so'nggi o'n yetti yil mobaynida yosh avlodni aqliy, jismoniy va ma'naviy kamolotga yetkazishda tub islohotlar amalga oshirildi.

Zero, Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek: «Bu murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma'naviyat olami yangi ma'no-mazmun bilan boyib boradi. Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot – bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma'naviyatning shakllanishiga o'ziga xos ta'sir o'tkazadi»¹.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy bilimlarini oshirish, oliy o'quv yurtlarida tahsil oluvchilarning ta'lim-tarbiyasini takomillashtirish, madaniyatli va o'z e'tiqodiga sodiq yoshlarni tarbiyalashga bo'lgan e'tiborni har qachongidan ham kuchaytirish zarurligiga alohida urg'u berilgan.

Erkin va mustaqil fikrlovchi, dunyoqarashi keng, ijodkor, milliy mafkuramizga sadoqatli bo'lgan intellektual salohiyatli barkamol shaxsni shakllantirish fan-texnika va texnologiyalarining eng so'nggi yutuqlaridan ta'lim-tarbiya sohasida keng foydalanishni taqozo etadi va bu bilan jahon andozalari talablariga to'liq javob beradigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishiladi. Uzluksiz ta'lim tizimining quyi bosqichlaridanoq o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini aniqlash va ta'lim mazmunini shu asosda qurish mehnatning rivojlanishini ta'minlovchi, intellekt va bilimlarni ro'yobga chiqaruvchi asosiy omillardan biridir. Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, barkamol insonni shakllantirish kelajak taqdirimizni belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardanoq yoshlar masalasiga katta e'tibor qaratildi. 1991-yili 20-noyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi Qonun, 2000-yilning «Sog'lom avlod yili», 2008-yilning «Yoshlar yili» deb atalishi, «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada» kabi musobaqalar orqali yoshlarning sportga ommaviy jalb etilishi yoshlarning kelajagi uchun davlatimiz tomonidan yaratilayotgan g'amxo'rlikdir. Ayniqsa, har qanday davlatning rivojlanishiga asos bo'ladigan iqtidori yuqori yoshlarga davlatimiz tomonidan katta imkoniyatlar

¹ I.A.Karimov. Юксак маънавият – энгилмас куч – Т.: Маънавият, 2008. – Б.40-41.

yaratilmogda. 1997-yili qabul qilingan «Ta'lim to'g'risidagi» Qonun²da ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish belgilab qo'yilgan bo'lib, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ushbu tamoyilga to'la amal qilib kelinmogda. Ta'lim oluvchilarning iste'dod va qobiliyatlari davlat tomonidan moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirilib borilmogda. Bunday rag'batlantirishlar sirasiga iste'dodli o'quvchilarni faxriy yorliqlar, stipendiyalar hamda mukofotlar bilan taqdirlashni kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 25- martdagi «O'zbekiston o'quvchi-yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida»gi qarorining qabul qilinishi ushbu tamoyilni huquqiy jihatdan kafolatlanishini ta'minladi. Mazkur qarorga muvofiq har yili o'quvchi va o'quvchilar o'rtasida fan olimpiadalari o'tkazilib, g'oliblar turli imtiyozlarni qo'lga kiritmogdalar.

Akademik litsey o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi sifatida fanning turli yo'nalishlari bo'yicha o'quvchilarga chuqur, tabaqalashtirilgan, ixtisoslashtirilgan bilim berishni ko'zda tutadi. Akademik litseyning ushbu o'ziga xosliklaridan kelib chiqqan holda, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga doir faoliyatni takomillashtirish, mazkur jarayonda ta'lim muassasasi va oila hamkorligini yo'lga qo'yish chora-tadbirlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

² Qarang: O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. // Barqamol avlod – O'zbekiston taraqqiyyatining poydevori kitobida. – T.: Sharq, 1997.

I bob. IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK O'ZIGA XOSLIKLARI

1.1. O'quvchilarning iqtidorini rivojlanishida qobiliyat va iste'dodning o'rni

Iqtidor – bu inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo'lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Psixologik lug'atda «iqtidor» tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi:

1) iqtidor bu faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydigan qobiliyatlarning o'ziga xos uyg'unlashuvidir;

2) iqtidor bu – insonning imkoniyatlari doirasi, faoliyatlari darajasi va o'ziga xosligini belgilaydigan umumiy qobiliyatlar;

3) iqtidor bu – aqliy potensial, ta'lim olish qobiliyati va bilish imkoniyatlarining bir butun individual xarakteristikasi;

4) iqtidor bu – tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, qobiliyatlar tabiiy asoslarining o'ziga xosligi va ularning namoyon bo'lishi darajalari;

5) iqtidor bu – iste'dodlilik, faoliyatda yuqori natijalarga erishish uchun ichki imkoniyat va sharoitlarning mavjudligi.

Ushbu tavsiflardan kelib chiqqan holda, shuni ta'kidlash mumkinki, iqtidor asosida umumiy intellektual va insonning bilish imkoniyatlarini belgilaydigan, tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, biror bir faoliyatda (masalan, ta'lim, ijodiy, kasbiy, ilmiy) muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydigan maxsus qobiliyatlar yotadi.

O'quvchilarning iqtidorini rivojlanishida ularning tug'ma qobiliyat va iste'dodining o'rni muhim ahamiyatga ega. Tug'ma qobiliyatga ega bo'lgan yoshlarimiz kattalarning har bir ta'limiy, tarbiyaviy va kasbiy ta'limotlarini tez ilg'ab oladilar va tez o'zlashtirib hayotga tatbiq eta oladilar. Lekin bu qobiliyat va iste'dod, barcha yoshlarimizga tug'ma talant nasib etavermaydi. Shunday ekan, qobiliyatni shakllantirib borish, yoshlarning iste'dodini oshirib borish birinchi navbatda pedagoglarimizga va keng jamoatchilik zimmasiga, ya'ni oila, mahalla, o'quv muassasalari va korxonalar, tashkilot, ustaxona boshqaruvchilari zimmasiga tushadi.

Iste'dod tushunchasining asosiy mazmuni «qobiliyat» degan ma'noni ham anglatadi. Bizningcha, amaliyotda qo'llaniladigan «qobiliyat» tushunchasi uchta asosiy qismga ega.

Birinchiidan, qobiliyat psixologik o'ziga xos alohida xususiyatlarga ega bo'lib, bir odamni boshqasidan farqlaydigan qobiliyat tushuniladi, barcha odamlar xos bo'lgan qobiliyat haqida gap ketganda hech kim bu iborani ishlatmaydi.

Ikkinchiidan, qobiliyat iborasi umuman olganda odamdagi o'ziga xos har qanday turli xususiyatlarni anglatmay, balki faqat xilma-xil faoliyatlarni bajarishda erishgan muvaffaqiyatiga bog'liq bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llaniladi. Masalan, ba'zi odamlar shubhasiz o'ziga xos fazilatlarga ega: jizzakilik, lanjlik, yalqovlik kabi xususiyatlarni odatda qobiliyat deb bo'lmaydi, chunki har qanday faoliyat orqali ham har doim muvaffaqiyatga erishish mumkin emas.

Uchinchiidan, «qobiliyat» tushunchasi ayrim shaxslarda, ya'ni uning bilimi yoki bilimdonligiga qarab belgilanmaydi. Ko'pincha, pedagog o'quvchining faoliyatidan uncha qoniqmasada, lekin shunga qaramay yaxshi o'zlashtira olmayotgan bola boshqa o'rtoqlaridan ortda qolmay fanlarni yaxshi o'zlashtirishga harakat qilishi bilan o'qituvchini xursand qiladi. Pedagog o'zining noroziligini o'quvchi bilan yetarlicha shug'ullanmasligini asoslab: o'quvchining «qobiliyatiga e'tibor berib», o'quvchi bilan ko'proq shug'ullansa bilimni yaxshi o'zlashtira olish qobiliyati bor degan xulosa keladi.


Umumiy qobiliyat egalari yuqori intellektual imkoniyatlarga ega bo'lib, muammoning yoki biron-bir masalaning yechimini tezda topishi, faoliyatiga ijodiy yondashishi bilan ajralib turadi. Maxsus qobiliyat egalari esa biron-bir aniq (masalan, matematika, musiqa, rasm chizish, shaxmat o'ynash, sport) faoliyat turiga qobiliyati bo'lgan va mana shu faoliyat bilan shug'ullanishni afzal ko'radilar.

Iqtidorli bolalar bu umumiy va maxsus qobiliyatlarni o'zida mujassam etgan bolalardir. Ular boshqa bolalardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadilar:

- qiziquvchanligi;
- doimo turli savollarga javob axtarishligi;
- nutqi, tafakkuri, xotirasining tez rivojlanishi;
- erta yoshdanoq musiqa, rasm chizish, kitob o'qish, matematikaga qiziqishi;
- yuqori darajadagi bilish faolligi va o'quv faoliyati;
- masalalarning yechimini topishda maqsadga intiluvchanlik va originallik; tafakkurning unumdorligi;

Pedagogik nuqtayi nazardan umumiy va maxsus qobiliyat yosh davrlarini inobatga olgan holda muhim jihatlarga bog'liq. Erta yosh davrlar — maktabgacha va kichik maktab yoshida iqtidor umumiy hamda universal qobiliyat sifatida ko'rilishi va rivojlanishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan bu «umumiy qobiliyat» o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib ma'lum bir yo'nalishni belgilaydi. Ayni vaqtda bu iqtidor bola tomonidan qay darajada

namoyon bo'layotganligiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Aniq namoyon bo'lgan, ya'ni psixolog, pedagog, ota-onalar tomonidan e'tibor berilgan qobiliyat «aktual», atrofdagilar payqamaydigan qobiliyat «potensial» qobiliyat deyiladi. Ko'pgina mashhur olimlar, bastakorlar, rassom va yozuvchilar (masalan, yosh V.A.Motsart, F.Galton, I.Mechnikov, K.Gauss, N.Vinner, G.Leybnits, V.Gyugo) erta yoshdayoq o'zlarining qobiliyatlarini namoyon qilganlar. Va aksincha ko'p hollarda bolalikda hech qanday iqtidorga ega bo'lmagan bolalar yetuklik davrda muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkin. Bu aqliy potensialga ko'pincha atrofdagilar e'tibor bermasliklari mumkin.



1.1.1-rasm. Iqtidorning umumiy tuzilmasi.

Tabiiyki, har bir holatda iqtidorni payqamaslikning sabablari turlicha. Potensial qobiliyat haqiqatan ham ma'lum bir vaqtgacha namoyon bo'lmagandir. Balki ota-onalar pedagoglar va kattalar tomonidan bola qalbining nozik harakatlaridagi o'zgarishlarga yetarlicha ahamiyat berilmagandir, intuitiv holda buni payqamagandirlar yoki bilimlari yetmagandir. Yoki aksincha, bu narsalarni tushunmaganliklari sababli boladagi buyuk potensial imkonini

yatlarni sezmagalar, va hattoki, bu ijodkorlikni, intellektual tashabbusni negativ xususiyat sifatida qabul qilganlar.

Qobiliyatlar sifatida ro'yobga chiqadigan psixik xislatlar majmuasining tuzilishi yaqqol va alohida faoliyat talabi bilan belgilanganligi tufayli har qaysi turdagi faoliyatlar uchun o'ziga xos tarzda qo'yilishi turgan gap. Buning uchun ayrim misollarni tahlil qilib o'tamiz:

1) matematik qobiliyat: matematik materiallarni umumlashtirish, mulohaza yuritish jarayonini qisqartirish, matematik ish- amallarni kamaytirish, masalani idrok qilish bilan natijasi o'rtasida aloqa o'rnatish, to'g'ri va teskari fikr yuritishdan o'tishlik, masala yechishda fikr yuritishning epchilligi kabilar;

2) adabiy qobiliyat; Nafosat hislarining yuksak taraqqiyot darajasi, xotirada yorqin ko'rgazmali obrazlarning jonliligi, «til-zehni», behisob xayolot, ruhiyatga qiziquvchanlik, o'zi ifodalashga intiluvchanlik va boshqalar. Ajratib ko'rsatilgan qobiliyatlar tarkibidan ko'rinib turibdiki, matematik va adabiy qobiliyatlar o'zaro bir-biriga o'xshagan talablari bilan tafovutga egadir. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, pedagogik, musiqaviy, texnik, konstruktorlik, tibbiy qobiliyatlar va shunga o'xshash qobiliyatlar tuzilishi maxsus xususiyatga ega bo'lib, kasbiy ahamiyat kasb etishi mumkin³.

Psixologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha birorta ham qobiliyatning yo'qligi yoki yetarli taraqqiy etmaganligi iste'dod sifatlarining murakkab turiga kiruvchi boshqa qobiliyatlarining jadal taraqqiyoti yo'li bilan muvaffaqiyatli ravishda o'rni bosib boriladi.


Har qanday layoqat qobiliyat darajasiga ko'tarilishi uchun eng murakkab yo'lni bosib o'tishi kerak bo'ladi. Qobiliyatlar ilk davrlardan oq rivojlana boshlab, bir necha bosqichda amalga oshadi.

Qobiliyatlarining rivojlanishi va shakllanishi birinchidan, ma'lum bir faoliyatga moyillik yoki intilish borligiga va faoliyat natijalarining sharoitga qarab tegishli tabiiy zehn, nishonalarni aniqlash yo'li bilan, ikkinchidan mutaxassis (muzikant, artist, rassom va hokazo) rahbarligida tizimli faoliyatga jalb etish orqali shaxsning tabiiy xususiyatlarini chiniqtirish va rivojlantirish yo'li, bilan uchinchidan, umumlashgan aqliy operatsiyalarni shakllantirish yo'li bilan borishi kerakki, bu operatsiyalar umumiy va maxsus axborotni yengil va samarali o'zlashtirishni, tanlagan faoliyat bo'yicha ko'nikma va malakalarni hosil qilishni ta'minlasin. To'rtinchidan, o'quvchining maxsus qobiliyatini kamol toptirishni jadallashtirishni ta'minlovchi shaxsni har tomonlama rivojlantirish yo'li bilan. Beshinchidan, shaxsning faollik alomatlarini tarbiyalash yo'li bilan borish kerakki?, bu alomatlarini dastavval mehnatsevarlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, puxtalik, qat'iyatlik, sinchkovlik va tanqidiylikdan iborat. Bularsiz individning potensial imkoniyatlari va

³ Гозиев Э. Умумий психология. – Т.: Университет, 2002. – Б.32.

qobiliyati faoliyatda maksimal ravishda rivojlana olmaydi. Oltinchidan, maktab o'quvchilariga nisbatan individual munosabatda bo'lishni umumiy talablar bilan to'g'ri qo'shib olib borishdir. Qobiliyatning muayyan izchillikda namoyon bo'lishi va rivojlanishini hayot tajribasi ko'rsatib turibdi.

Qobiliyatlar rivojlanishini quyidagi rasm orqali ko'rish mumkin.



1.1.2-rasm. Qobiliyatlar rivojining ko'rinishi.

Qobiliyat turli rivojlanish darajasiga ega bo'lishi mumkin. Ilmiy abstraksiyalash qobiliyatning ikki darajasini farqlash imkonini beradi; reproduktiv va ijodiy aks ettirish darajalari, o'z qobiliyatini rivojlantirishning birinchi darajasidagi kishi bilimlarni juda mohirlik bilan o'zlashtiradi. Faoliyatni o'rganib oladi va uni biror namuna orqali amalga oshiradi. Ikkinchi darajada turgan kishi esa yangilik yaratishga qodirdir. Bu darajalarni tekshirishga metafizik munosabatda bo'lish yaramaydi albatta, birinchidan har qanday reproduktiv aks ettirish, faoliyat ijodiy faoliyat elementlarini ijodiy aks ettirish faoliyati esa reproduktiv faoliyat elementlarini, o'z ichiga qamrab oladi, busiz ularni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ikkinchidan, yuqorida

aytilgan darajalar ham qandaydir o'zgaras va qotib qolgan narsalar emas. Kishi bilimlarni o'zlashtirib, ko'nikma hosil qilish jarayonida faoliyat bir darajadan ikkinchi darajaga o'tib turadi. qobiliyatning tabiiy manbai ham mavjud bo'lib va u tabiiy zehn deb yuritiladi.⁴

Boshqa, xususiyatlarni esa qadrliroq deb hisoblaganlar, ya'ni hamma-mizga shaxsiy tajribamizdan ma'lumki, tirishqoqlik, itoatkorlik, saranjom-sarishtalik kabi xislatlarni fikrlar originalligi, dadillik, harakatlardagi va mulohaza yuritishdagi mustaqillikdan ustun qo'yadigan ota-onalar, o'qituvchilar, oliy o'quv yurtlari professor o'qituvchilari, rahbarlar uchraydi. Amerikalik olimlar tomonidan 400 ga yaqin taniqli odamlarning tarjimai holi o'rganib chiqilganda ulardan 60 foizi maktab ta'limi davrida jiddiy muammolarga duch kelganliklari aniqlandi. Aktual va potensial qobiliyatlar tushunchasining mavjudligi rivojlanishni oldindan prognoz qilish muammosini muhim deb hisoblaydi.

Shaxsning qanday sifatleri va xarakter xususiyatlari, fe'l-atvoridagi va faoliyatidagi fazilatleri kattalarga kelajakda bolaning buyuk olim, rassom yoki davlat arbobi bo'lishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Bu savolga javob topish birmuncha mushkuldir. Psixologlar bolaning kelajagini «bashorat» qilish imkonini beradigan qator qonuniyatlarni belgilab berganlar, lekin asoslangan prognozlar berishga hali erishilgani yo'q. Shu bilan birga jahon pedagogika va psixologiyasi sohasidagi tajriba shuni ko'rsatadiki, bolaning imkoniyatlariga ishonchning pedagoglar va ota-onalarning mahoratiga yo'g'rilganligi mo'jizalar sodir etishga qodir. Ba'zi hollarda hayotda insonga tabiat tomonidan berilgan qobiliyatdan ham ko'ra u ana shu xususiyatni qanday rivojlantira olgani muhimdir.

Ulg'aygan sari bolalarda aqliy salohiyatini o'sib borishini kuzatish mumkin. Hayotining birinchi 10 yilligida bolalar aqliy faoliyatining eng qiyin davri, ko'plab yangiliklarni o'zlashtirish, his-hayajonga to'la davr bo'ladi. Bundan tashqari bolalar yoshligi tufayli nerv sistemasi sezgir bo'ladi. Hatto oddiy hisoblagan holatlarimiz ham ularning tez qabul qilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bolalarni iqtidori turli yoshlarda namoyon bo'ladi. Agar bolaning konkret rivojlanish vaqti o'tkazib yuborilsa, bu kelajakda uning iqtidorini rivojiga to'sqinlik qiladi.

Bola iqtidorini sezgan ota-ona va o'qituvchilar, bunday bolani e'tiborsiz qoldirmasliklari kerak, chunki kelajakda u o'zini qandaydir iqtidorini ko'rsatishi mumkin.

O'z tengdoshlaridan ilgari ketgan o'quvchilar qiyinchilik ko'rmaydi, degan xayol noto'g'ri, bunday bolalarni uyda va maktabda ko'p qiyinchiliklar kutadi. Ko'pincha bolalar ularni aqliy faollashuvi ota-onalarning qo'rquvi va bezovtalanishiga sabab bo'ladi, asosiysi bolalarga buni bildirmaslik kerak.

⁴ K.A.Xeller, K Perlet, V.Siervad, tarjima «Iqtidorli bolalar»1991y. «Qobiliyat psixologiyasi» fanidan ma'ruza matni. T. - 2005.486.

Boshqa oilalarda bolalariga berilgan iqtidor ularni yaxshi kelajagini ta'minlaydi. Bolalarni rag'batlantirishadi va ular bilan g'ururlanishadi. Bunday bolalarda o'ziga yuqori baho qo'yish va mensimaslik holati yuzaga kelishi mumkin. Iqtidorli bolalarni o'qitishda ehtiyot bo'lish zarur. Ular atrofdegilarni qo'llashi va tanqidiga juda sezgir bo'lishadi. Oila sharoitida ham iqtidorli bolalarni «g'alatiroq» hisoblashlari mumkin.

Shunday qilib iqtidorli bolalar aqliy salohiyatining boshlang'ich davridayoq muammolarga duch kelishadi. Ularni nafaqat uyda, balki maktabda ham tushunmasliklari mumkin. Maktabda ularni boshqa bolalar bilan birga o'qitilishi, achinarlisi ular bilgan, ularga endi qizig'i yo'q mavzularni o'qitilishi zeriktiradi. 1-sinfdan ular o'qish, yozish va hisobni biladilar, boshqa o'quvchilar alifbe va hisob-kitobni o'rgangunga qadar iqtidorli bolalar bekorchi bo'lib qoladilar. Albatta hammasi pedagog mahoratiga bog'liq, lekin qanchalik pedagog alohida yondashuv bilan butun sinfga dars o'tmasin, u kuchli o'quvchilargagina diqqat - e'tiborini qaratishi qiyin. Aqlli va faol o'quvchi o'qituvchining diqqatini berilgan vazifalarni tez va oson bajarishi bilan qaratib, o'qituvchi va tengdoshlariga og'irligi tushishi mumkin. Bunday o'quvchilardan kamroq dars so'ralishi kuzatiladi, faolligi kerak emasligini ko'rgan o'quvchi boshqa predmetlarga chalg'ishi bilan o'qituvchining mamnuniyatsizligini keltirib chiqaradi. Bora-bora o'qishni sevuvchi faol bola maktabda o'zini ortiqcha sezadi va maktab unga kerakmasdek bo'lib qoladi. Muammoning sababi, iqtidorli bola bilimga chanqoqligi tufayli ko'proq ma'lumot olishni va ko'proq dars o'zlashtirishni xohlaydi, o'rta ta'lim maktabi dasturi esa u xohlagan bilimni berishga qodir emas.

Iqtidorli bolalarga alohida yondashilmasa oxir-oqibat o'rta maktab talabiga javob beradigan bo'lib qoladi. Natijada uning mustaqil fikrlashi, bilimga chanqoqligi va real imkoniyatlari e'tibordan chetda, talabsiz qoladi.

Odatda, iqtidorli bolalardan, boshqa bolalarga nisbatan ko'proq talab qilinadi. Bunday bolalarda shu davrda tengdoshlari bilan qiyinchiliklar tug'ilishi, boshlang'ich maktabni tugatayotganda boshqa bolalar ularni o'zlaridan uzoqlashtirib, hatto xafa qiladigan laqablar ham qo'yishadi, bunday vaziyatda iqtidorli bolalar jamoadan ajralib qolmaslik uchun ulardan ortiqroq bilishi va harakatchanligini ko'rsatmaydi.

O'rta ta'lim maktabida o'qishga xalaqit qiladigan iqtidorli bolalarni asosiy ko'rsatgichlaridan biri ular uchun berilgan oddiy vazifalarni bajarmasligi va o'qishga qiziqish yo'qligidir. Bunday bolalar o'zlari bemalol o'zlashtiradigan mashg'ulotlarni kimdir boshqarishini xohlamaydilar, hatto boshqarilsa xafa ham bo'ladilar.

Iqtidorli bolalarni o'qitishni birgina yo'li iqtidorli sinflar yoki maktablarni tashkil qilinishidadir. Shundagina iqtidorli bolalar maktabni tezroq tamomlab, tezroq o'zlari xohlagan oliygohlariga kirishlari mumkin. Bu ularga oldilariga qo'ygan maqsadlariga tezroq erishishlariga sabab bo'ladi. Iqtidorli

bolalar o'z oldilariga qo'ygan maqsadlarga erishishi, Vatanimiz kelajagi va ravnaqi uchun salmoqli hissa bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, bola tarbiyasi kattalarni tarbiya muammolariga e'tiboriga emas, balki bolalarga berayotgan e'tiboriga bog'liqdir.

«Iste'dod» va «qobiliyat» o'ziga xos tushunchalarga ega, ulardagi inson xususiyatlari har qanday amaliy faoliyat taqdim etayotgan talablar nuqtayi nazaridan ko'riladi. Shuning uchun iste'dod haqida ham umuman gapirish mumkin. Iste'dod shaxsning faqatgina nimagadir, qandaydir faoliyatiga nisbatangina qo'llaniladi. Aynan «iqtidorlik» tushunchasining ichida zaruriy shart sifatida muayyan amaliy faoliyatdan iborat bo'lgan o'zaro bog'liqlik ushbu tushunchaning tarixiy xarakterini belgilab beradi. «Iste'dod» tushunchasi biologik xususiyat deb qaralganda o'z mazmunini yo'qotadi. Iste'dod – bu har qanday u yoki boshqa faoliyat turlariga kiritilishi va shubhasiz har bir muayyan faoliyatning «muvafaqqiyatli» bajarilishiga jiddiy ravishda bog'liqligidir.

Shunday qilib, «iste'dod» tushunchasi aniq, tarixiy rivojlanayotgan ijtimoiy mehnat amaliyoti uslubi bilan o'zaro bog'lanmasa hech qanday ahamiyatga ega emas.

Psixologik ma'lumotlarni umumlashtirilgan holda ikki xil xususiyatli fikrni alohida ta'kidlab o'tish iste'dod tuzilishini yengilroq tushunish imkoniyatini yaratadi:

1) iste'dod – bu shaxs psixik xislatlarining shunday murakkab birikmasidirki, uni: a) alohida, yagona maxsus qobiliyat bilan, b) xotiraning yuksak mahsuldorligi orqali; d) hatto noyob (kamyob, nodir) sifat tariqasida o'lchab bo'lmaydi;

2) shaxsda u yoki bu qobiliyatning mavjud emasligi hamda yetarli darajada taraqqiy etmaganligi talantning murakkab tarkibiga» kiruvchi boshqa qobiliyatlarning jadal takomillashuvi orqali ularning o'rni bosib yuborishi (kompensatsiya qilishi) mumkin.

1.2. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning pedagogik-psixologik o'ziga xosliklari

Iqtidorlilik muammosi boyicha ilk tadqiqotlar asr boshlarida boshlangan. Bu kabi tadqiqotlar 1905–1912-yillar mobaynida Moskva, Petrograd, Kiyevda o'tkazilib, bu tadqiqotlar milliy xarakterga egaligi bilan Amerika, Angliya va Nemis psixologlarining qarashlaridan tubdan farq qiladi. Bu borada tadqiqot olib borgan psixologlar qatoriga shaxs tuzilishiga qiyosiy yondashuvni olib kirib uni rivojlantirgan G.I.Rossolimini kiritish mumkin (1910 y). G.I.Rossolimo o'zining «Bola qalbini tadqiq qilish rejasi» ishda jahon psixologiyasida birinchilardan bo'lib bolani kuzatish sxemasini taklif qiladi.

1909–1910-yillarga kelib esa G.I.Rossolimo tomonidan iqtidorli bolalarni diagnostika qilish tizimi yaratildi. Bu tizim o‘zining to‘liq va aniqligi bilan ajralib turardi. Bu tizim quyidagi asosiy funksiyalarni tadqiq qilishga qaratilgan:

- a) diqqat;
- b) iroda;
- d) idrokning yaxlitligi;
- e) eslab qolish;
- f) assosiativ psixologiyaning tafakkur qaidagi qarashlariga muvofiq keluvchi assosiativ jarayonlar.

Assosiativ jarayonlarni diagnostika qilish quyidagi sifatlarni o‘zida mujassamlashtiradi:

- 1) fikrlash;
- 2) kombinatsiyalashgan qobiliyatlar;
- 3) fikr tezligi;
- 4) tasavvur;
- 5) kuzatuvchanlikni baholash.

Bu jarayonlarni o‘rganish uchun eksperimental psixologiyaning asosiy manbalariga tayangan holda diagnostik masalalar ishlab chiqildi. Ushbu metodika yordamida iqtidorlik darajasining dastlabki grafigi taqdim qilindi. Shunday qilib, bilish jarayonlarini diagnostika qilish va ularning darajasini baqolash asosida XX asrga kelib iqtidorlilik darajasini baholashga urinishlar boshlandi.

G.I.Rossolimo bolalarda psixosomatik tadqiqotlar olib boriladigan bolalar psixologiyasi va nevrologiyasi institutini tashkil qiladi. Uning rahbarligi ostida «Psixologiya va bola» jurnali nashr qilina boshlandi. 1912-yil G.I.Rossolimo Lomonosov jamiyatiga a‘zo bolalar orasidan yuqori iqtidorli bolalarni saralab oladi.

XX asr boshlariga kelib iqtidorlilik muammosini rus pedagoglari ham tadqiq qila boshladilar ularning ilmiy-metodik maqolalarida qobiliyatlarning «yetishmasligi» yetakchi sifatlarning «tormozlanishi»ni yetishmasligi haqidagi g‘oyalar ilgari suriladi. Keyinchalik esa ularning tadqiqot muammolari qatoridan quyidagi jarayonlar o‘rin egallay boshladi:

- iqtidorlilarni rivojlanishning ijtimoiy shartlari;
- iqtidorlik tushunchasini aniqlashtirish;
- iqtidorlikni kelib chiqishi va tuzilishi.

Rus olimi V.M.Ekzemplyarskiy iqtidorli bolalarni o‘rganish uchun diagnostik metodika qo‘llangan. U iqtidorli bolalar uchun maxsus maktablar yaratish hamda ularni o‘qitish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish lozimligini taklif qilgan. 1920-yillarning boshlarida tadqiqotchilar, ya‘ni bu muammoni o‘rganuvchilar faqatgina yaxshi taraqqiy etgan qobiliyatlarnigina o‘rganishga moyil bo‘lib, ular orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tadqiq qilish-

ganligini ta'kidlagan. U iqtidorlilikni faqatgina intellektual soha bilan bog'langan tadqiqotlarga o'z tanqidiy munosabatini bildirgan. U o'z ishlarida shaxs iqtidorlilikini diagnostika qilish muammosiga asosiy e'tiborni qaratgan.

1920-yillar oxiri 1930-yillarning boshlarida iqtidorlilik muammosini o'rganishga doir ishlar birmuncha jonlanganligi kuzatiladi. Jumladan, katta hajmdagi psixologik diagnostik metodikalar, iqtidorlilikni aniqlovchi testlar ishlab chiqildi va amalga tatbiq qilindi. Bularning barchasi Yevropa, Amerika tadqiqotlari asosida amalga oshirildi.

Agar bu tushuncha Rossiyada og'zaki o'rganilgan bo'lsa, XX asrga kelib Amerika, Angliya, Germaniyada bu muammo chuqurroq o'rganilgan. Pedagog va psixologlar orasida iqtidorlilikni tuzilish komponentlarini o'rganish kuchaydi. Masalan, Germaniyada psixikaga ko'nikish va moslashishning eng yuqori shakli sifatida qaralib, aqliy iqtidorning muhim tarkibi sifatida qaraladi.

V.Gitern buni quyidagicha izohlagan: Aqliy iqtidor – bu tafakkurni yangi talablarga ongli yo'naltirish va yangi topshiriqlar va hayot sharoitiga moslashish qobiliyatidir. Bu uzoq muammoni mohiyatini ochib bergan va iqtidorlilikni yangi topshiriq sharoitlarga moslashish sharti sifatidagi muammoni yechimini topib bergan. Ushbu tavsifnoma iqtidorlilik darajasini ajratishga imkon berdi.

V.Shtern qo'shimcha qilib: «Turli sharoit va sohalardagi yangi talablarga tez moslasha oladiganlar aqliy iqtidor egalaridir». Iqtidorlilikni aqliy faoliyat bilan bog'lash natijasida bilish jarayonlarini rolini o'rtishga irodaviy emotsional sohalari kabi individual tavsifnomalarni rolini cheklanishga olib keldi.

1912-yilda V.Shtern bolaning xronologik yoshidan qat'i nazar, uning tengqurlari kabi «oddiy» bola ekanini isbotlovchi matematik tenglikni ishlab chiqdi. Natijada u oddiy hisob-kitoblar orqali xronologik yosh va aqliy yosh o'rtasida aloqa borligini isbotladi: u bu ko'rsatkichni intellekt koeffitsienti deb nomladi (IQ). U bolaning intellektual taraqqiyotidagi rivojlanishi yoki orqada qolishni inobatga olib intellekt va intellektual farqlarni bola intellektual taraqqiyotini intensivligi va tempini tekshiradi. Formula quyidagicha bo'lib. $IQ = \frac{Aq \cdot Xq}{100}$ aqliy yosh (AE) va (XE) xronologik yosh orasidagi muvofiqlik aniqlanadi.

Iqtidorlilikni aniqlash uchun aqliy taraqqiyot shkalalari ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan biri Bine-Simon shkalasidir. Ushbu diagnostik shkalaning 2 ta muhim tamoyili uni yangiligi va amaliy ahamiyatini belgilab beradi. Birinchisi diagnostik topshiriqlar yordamida aniqlanuvchi barcha bilish jarayonlariga integral ekvivalentlarning topilganidan iborat. Ikkinchi tamoyil esa bolaning intellektual imkoniyatlarini, intellektual taraqqiyot bilan muvofiqligini o'z ichiga oladi.

Bu esa o'z navbatida iqtidorlikni bir qator faktorlar bilan bog'lab o'rganish imkonini berdi. 30-yillar boshlariga kelib shkala L.Termen tomonidan modifikatsiyalangan Stenfor-Bine shkalasi Moskva, Kursk, Vorenejlarda qo'llanilib sinovdan o'tkazilgan.

G'arbiy Yevropalik olimlar psixologiyadagi irsiyat nazariyasiga qarshi chiqadilar. Masalan, shveysariyalik psixolog V.Boven qalbaki doktrina deb tarbiyaviy tadbirlardan voz kechish jinoyat bo'lur edi, deb ta'kidlaydi.

Ingliz bioximigi S.Gouz kishi qobiliyatining rivojlanishi uchun to'siqlar biologiyaga qaraganda ijtimoiy sharoitda ko'proqdir, deb uqtiradi.

Ingliz psixologi, D.Kidjin ham aynan shunday xulosaga kelib, tarbiyaning kishi intellektual rivojlanishiga hal qiluvchi ta'siri haqida fikr yuritiladi.

Ikkinchi konsepsiyaning vakillari qobiliyatni butunlay hayot va tarbiyaning ijtimoiy sharoiti belgilaydi deb uqtiradilar. Masalan, Gelvesiy o'z vaqtida tarbiya yordamida geniyini yaratsa bo'ladi, degan edi. Rus olimi A.N.Leontev ham o'zining funksional organlar nazariyasi bilan bu nazariyaga A.Uxtomskiy asos solgan bo'lib, shunga o'xshash konsepsiyani yoqlaydi.

Masalan, tabiiy qobiliyatni muhitga bog'liq deb hisoblaydi. Modomiki, ishchilarning bolalari ulg'ayadigan og'ir ijtimoiy muhitdagi kishilarning madaniy va intellektual rivojlanish darajasi past ekan. Mutlaqo tabiiyki, bu bolalar ham o'z ota-onalarining rivojlanishi darajasidan o'tib keta olmaydilar deydi u.

Ko'zga ko'ringan rus psixologi S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontevning konsepsiyasiga norozilik bildirdi. Uning fikricha tug'ma iste'dod nishonalari bu reallikdir, uni rivojlantirish lozim.

Hayotiy kuzatishlar va maxsus tekshirishlar qobiliyatning tabiiy zaminini inkor qilib bo'lmasligini ko'rsatadi. Bir qator maxsus faoliyatlar borki, ular uchun tabiiy zamin xususan muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun zehn nishonalari bo'lgan kishi noqulay sharoitda ham zehn nishonalari bo'lmagan, lekin qulay hayotiy sharoitdagi kishiga nisbatan yuksak qobiliyat ko'rsata oladi. Va aksincha, masalan, bir oilada va bir maktabda rivojlanayotgan aka-ukalar yoki opa-singillar yaxshi yoki yomonligidan qat'i nazar, bir xil ijtimoiy sharoitda bo'lganlarida ularning qobiliyati va rivojlanishi paytida ba'zan keskin farqlar kuzatiladi.

Qobiliyatning uchinchi konsepsiyasining tarafdorlari ancha to'g'ri pozitsiyada turadilar. Ya'ni qobiliyat qulay ijtimoiy sharoit mavjud bo'lganda faoliyat jarayonida shakllanadi. Bu oxirgi konsepsiyada hayot o'zining butun xilma-xilligi bilan aks ettiriladi va maxsus tadqiqotlar bilan tasdiqlanadi.

Shubhasiz, qobiliyat miya tuzilishining qandaydir tug'ma anatomik xususiyatlari bilan, birinchi navbatda miya mikrostrukturasi xususiyatlari

bilan bog'liqdir. Bu xususiyatlar in'ikos jarayonining xususiyatiga va shaxsning xatti-harakatiga ta'sir qiladi.

Bolada juda erta seziladigan psixologik xususiyatlar zehn yoki dastlabki tabiiy xususiyatlardir. Shuni aytib o'tish lozimki, B.M.Teplov haqli ravishda aytgandek, psixologik xususiyat har taraflama ahamiyatga ega bo'lib, ular xarakterning ham, qobiliyatning ham tabiiy asosini tashkil qiladi. Umumiy tipdagi xususiyatlar kuchda va tonusda ifodalanadigan faollik, vazminlik, in'ikos va harakat jarayonlarining sezgirlik darajasi, shubhasiz qobiliyatning tashkil topishiga ta'sir qiladi.

Badiiy tipning xarakterli belgisi shundaki, ular birinchidan, voqelikni yaxlit, to'la va jonli tarzda idrok etadilar, holbuki mutafakkirlar uni bo'lib-bo'lib qabul qiladilar va shuning bilan go'yo uni jonsizlantiradilar.

Ikkinchidan, badiiy tip vakillarida tasavvur abstrakt fikrlashdan ustun bo'ladi. Fantaziya - deydi I.P.Pavlov - bu badiiy qobiliyat bo'lib birinchi signal tizimiga tegishlidir. Fikrlovchi tipda esa aql nazariy bo'lib, u so'z bilan bog'liqdir.

Uchinchidan, badiiy tip yuksak emotsionallik bilan ajralib turadi, chunki birinchi signal tizimi I.P.Pavlov tili bilan aytganda asosiy emosional fondni tashkil qiluvchi miya qobig'i bilan yaqin bog'liqdir. Badiiy tip hayajonli, muqarrar, emotsional tipdir degan edi I.P.Pavlov va aksincha, mutafakkir tipda emotsional fon va birinchi signal tizimi zaif bo'lsada, lekin u sog'lom va soddadil odam bo'ladi.

Ko'pchilik olimlar vunderkindlar jismonan zaif deb biladilar. Lekin bu xulosa noto'g'ri. Vunderkindlarning hammasi aqlan va jismonan soppa sog'. Buni isbotlash uchun 20-yillarda amerikalik psixologlar tomonidan tadqiqotlar o'tkazilgan. Bu tadqiqotga A.Termen boshchilik qilgan. Ular tadqiqot uchun 15000 o'quvchilarni o'g'il bola va qizlarni saralab oldilar. Ular umumiy aqlan rivojlangan, o'ziga xos xususiyatli 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar edi. Saralash jarayoni test natijalari va o'qituvchilarning tavsifnomasi asosida o'tkaziladi. So'ng bu o'quvchilar 10 yil mobaynida tadqiq etiladilar. Bu o'quvchilar boshqalarga nisbatan sog'liqlarining farqi yo'q, ular ham kasal bo'ladilar, asablari charchaydi. Lekin baribir ular boshqalarga nisbatan sog'lom, har tomonlama rivojlangan yetti muchali sog' bolalardir.

Rus psixologi A.G.Kovalev o'z tadqiqotlarida qobiliyatning tabiati va tashxis qilish yo'llarini tekshirishga muvaffaq bo'lgan. Muallifning ta'riflashicha, qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zi emas, balki inson shaxsining faoliyat talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlay oladigan xususiyatlar ansambli yoki sintezini tushunish kerak. Uning ta'kidlashicha, qobiliyatning tuzilishida tayanch va yetakchi xususiyatlarni va nihoyat, muayyan fonni yoki yordamchi xususiyatlarni farq qilish kerak. Hamma qobiliyatlar uchun asosiy

tayanch xususiyati – kuzatuvchanlik ko‘ra bilish ko‘nikmasidir. Uning yetakchi xususiyati ijodiy tasavvur qilishdir. A.G.Kovalyov yordamchi xususiyatlar qatoriga xotirani kiritadi, u faoliyat talablariga muvofiq ravishda o‘ziga xos ko‘nikishga ega, emotsional, ya‘ni his-tuyg‘uga beriluvchanlik xususiyati shaxsning faolligini oshiradi.

Muallifning ta‘kidlashicha, ilmiy mavhumlash qobiliyatning quyidagi darajasini farqlash imkonini beradi, reproduktiv aks ettirish darajasi va ijodiy aks ettirish. O‘z qobiliyati rivojlanishining birinchi darajasida turgan shaxs bilimlarni juda mohirlik bilan o‘zlashtiradi, faoliyatni o‘rganib oladi va uni biror namuna orqali amalga oshiradi. Ikkinchi darajada turgan inson esa yangilik yaratishga qodir bo‘ladi. Psixologiya fanida qobiliyat to‘g‘risida fikr ketganda uchta konsepsiya mavjudligi ta‘kidlanadi. A.G.Kovalyov asarida bayon qilinishicha, ulardan biri, qobiliyat shaxsning biologik jihatdan determinlashgan, ya‘ni biologik jihatdan bog‘langan xususiyatlaridir qobiliyatning ro‘yobga chiqishi va rivojlanishi esa tamomila irsiy fondga bog‘liq deb tushuntiriladi. XIX asrda F.Galton XX asrda Kotslar talant irsiydir, faqat imtiyozli tabaqalarning vakillarigina boy irsiy merosga ega bo‘ldilar, degan xulosaga keldilar.

Ikkinchi konsepsiyaning vakillari qobiliyatni butunlay hayot va tarbiyaning ijtimoiy sharoiti belgilaydi, deb uqtiradilar. Masalan, Gelvesiy o‘z davrida tarbiya yordamida geniy yaratsa bo‘ladi, degan edi. Amerikalik olim U.Eshbi insonning qobiliyati yashab turgan davrida stixiyali ravishda o‘zidan o‘zi va ongli tarzda ta‘lim-tarbiya jarayonida shakllanadi, shularning natijasi o‘laroq masalalarni yechish uchun tegishli dastlabki rejalar va dasturlar vujudga keladi. Fiziolog olimlar miyaning tuzilishida individual xususiyatlar bo‘lsa, bu hol miyaning funksiyalarida o‘z aksini topmasligi mumkin emas, deb qayd qiladilar.

A.G.Kovalyov ta‘kidlashicha, qobiliyatning uchinchi konsepsiyasi tarafdorlari ancha noto‘g‘ri pozitsiyada turadilar. So‘nggi nazariyada talqin qilinishicha, tabiiy kuchlar, zehn nishonalari va qobiliyatning rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy sharoit mavjud bo‘lishi kerak. Muallif zehn nishonalari deganda, anatomik-fiziologik xususiyatlardan ko‘ra, ko‘proq psixologik-fiziologik xislatlarni tushunish kerakligini uqtiradi. Zehn muayyan bir faoliyatga (maxsus qobiliyat) yoki hamma narsaga nisbatan ustuvor qiziquvchanlikda (umumiy qobiliyat), moyillikda va intilishda ko‘rinadi.

A.G.Kovalyov Edikson fikriga asoslanib («bunda faqat 1 foizgina geniy bo‘lsa, 99 foiz ter to‘kish bo‘lgan»), hamma buyuk kishilar bag‘oyat mehnatsevarlikka va katta ishchanlikka ega bo‘lganlari holda hatto nerv tizimi tabiiy kuchsiz bo‘lsa-da, subyektiv ravishda yutuqlarini qobiliyatdan emas, balki mehnatdan deb baholaganlar.

A.G.Kovalyovning ta‘rificha, adabiy ijodga qobiliyat shaxs iste‘do-dining badiiy tipiga tegishli bo‘lib, badiiy tipdagi qobiliyatning hamma

ko'rinishlaridan uni ajratib turadigan o'ziga xos sifatlarga ham egadir. Uning ta'kidlashicha, umuman qobiliyat va xususan adabiy ijodga xos qobiliyat murakkab bo'lib, uning tuzilishida har xil xususiyatlar yoki tarkiblar mavjud. Bu jabhalarning biri yetakchi, boshqalari tayanch xususiyatlar, uchinchilari esa sermahsul faoliyat uchun zarur bo'lgan muayyan bir fonni tashkil qiladi. Adabiy qobiliyatda uch tomonni mujassamlashtirish muhim ahamiyatga ega, ya'ni o'tkir kuzatuvchanlik, kuchli ijodiy tasavvur, til vositasida ko'rgan va ravshan tasavvur etgan narsalarni tasvirlay olish.

Muallif mulohazasiga ko'ra adabiy qobiliyatning tayanch xususiyati yumshoq ko'ngillilik va ta'sirchanlikdir. Ta'sirchanlik deganda idrokning jonliligi va o'tkirligini emotsional iltifotgo'ylikning naqadar kuchliligini tushunish kerak. Ijod uchun yolg'iz ko'ra bilish qobiliyatining o'zi kamlik qiladi, ko'rganlarni qayta o'zgartira bilish, kuzatilayotgan narsani boshqa hayotiy taassurotlar bilan fikran bog'lay olish ham muhimdir. Kuzatilayotgan narsalar ayniqsa yaratilayotgan obrazlarni aniq va ravshan ko'z oldiga keltirish qobiliyatida namoyon bo'ladi hamda bu adabiyotda ko'pincha ichdan ko'rish qobiliyati deb ataladi.

Adabiy qobiliyatni tekshirish shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning qobiliyatlari qobiliyatsizlaridan, V.P.Yagunkovning ma'lumotlari bo'yicha idrok qilishning aniqligi va xotirasi bilan, yangi original obraz va syujetlar tuzishdagi tafakkur kuchi va tasavvur bilan, ijodiy vaziyatning syulgina yuzaga kelishi bilan, so'z boyligi va til sezgisi bilan farqlanadilar. Ba'zi birlarida voqelikka mulohazali, mantiqiy munosabatda bo'lish ustun tursa, boshqalarida obrazli emotsional munosabat ustundir, uchinchilarida esa bularning har ikkisi ham mujassamdir. V.P.Yagunkova sinalluvchilarning adabiy qobiliyatini tashxis qilishda quyidagi ko'rsatkichlarni mezon tariqasida oladi, chunonchi a) idrok etish va xotiraning aniqligi; b) emotsional ta'sirchanlik; d) tasavvurning kuchi va jonli tilni his qilish kabilar.

S.P.Kudryavseva tadqiqotida ilk o'spirinning adabiy qobiliyati ikki tipga ajratiladi, ya'ni adabiy-tanqidiy tip va badiiy-ijodiy. Birinchi tipda badiiy asarlarni tushunchalar asosida tahlil qilishning o'sganligiga e'tibor qilinadi. Ikkinchi tipda adabiy asarlarni o'qish vaqtida va adabiy mavzuga bayon yozishda hayajonlanish, ijodiy yondashishga ahamiyat qaratiladi.

V.A.Kruteskiy matematik qobiliyat tuzilishiga quyidagilarni kiritadi:

1) qobiliyatda bolalarning matematik materialni qabul qilish borasidagi qobiliyatiga matematik obyektlar, munosabat va amallarni shakl holiga keltirib idrok qilish matematik materialga o'ziga xos «yig'ma» analitik-sintetik ishlov berish qobiliyati qayd qilish lozim;

2) qobiliyatli o'quvchilarning fikrlashi quyidagilar bilan: a) miqdoriy va fazoviy munosabatlar, sonlar va belgilar simvolikasi sohalarida mantiqiy fikrlash qobiliyati; b) matematik materialni tez va keng umumlashtira olish; d) matematik mulohazalar jarayonida qisqacha aqliy xulosalar yordamida

fikrlashga moyillik; e) fikrlash jarayonlarining nihoyatda moslashuvchan va harakatchanligi; f) yechishda ravshanlik, soddalik, ratsionallik va ixchamlikka intilish;

3) Matematik axborotni xotirada saqlash va hokazo.

Matematik qobiliyatning borligini taxmin qilishga asos bo'ladigan tashqi alomatlarni belgilash mumkin. Muallif taxminicha bular quyidagilardir:

1) o'quvchining matematikaga oid ochiq-oydin qiziqishini namoyish qilishi, hech kim majbur qilmasdan, o'zining bo'sh vaqtini sarflab, matematika bilan bajonidil shug'ullanishga moyillik;

2) muayyan matematik ko'nikma va malakalarni odatdagidan kichikroq yoshda o'zlashtirish qobiliyati;

3) matematikani o'zlashtirish sohasida tez siljib borish;

4) matematik taraqqiyot va yutuqlarning yuqori darajasi.

Mamlakatimiz psixologi M.G.Davletshin texnikaviy qobiliyat ustida tadqiqot ishlari olib borgan yetakchi mutaxassis hisoblanadi. Muallif texnikaviy qobiliyat deganda shaxsning individual psixik xususiyatlaridan tuzilgan shunday o'ziga xos birikmalarni tushunadiki, u shaxsning texnikaviy faoliyatga yaroqlilik darajasini va u bilan muvaffaqiyatli ravishda shug'ullana olishini aniqlaydi.

M.G.Davletshin ham an'anaviy yo'ldan borib, texnikaviy qobiliyatlarni ikkita o'sha nomdagi tipga ajratadi hamda yetakchi tayanch xususiyatlarini o'zgarishsiz qoldiradi. Lekin boshqalardan farqli o'laroq, bunda yetakchi xususiyatlar rivojlangan texnikaviy fikrlash va fazoviy tasavvurdan iboratdir. Uning talqinicha, texnikaviy iste'dodli shaxs bo'lish uchun unda a) amaliy jihatdan fahmli; b) texnik moslamalarni tahlil qila olish qobiliyati; d) narsalarni montaj qilib qismlardan butun hosil qila olish qobiliyati bo'lishi shart.

M.G.Davletshin texnikaviy iste'dod ko'rsatkichlarini an'anaviy baholashni tan olgan holda (ko'z bilan chamalash, fazoviy tasavvur, texnikaviy tahlil, konstruksiyalash qobiliyati) o'zining original yondashuvini ishlab chiqqan. Texnikaviy qobiliyat darajasini tashxis qilish uchun tekshirishlarda ishlab chiqilgan eksperimental masalalarning to'qqizta seriyasidan foydalanadi.

Keyingi yillar ichida o'zbekiston psixologiyasida ham qobiliyat va iste'dod masalalari bo'yicha bir qancha psixologlar ish olib bormoqdalar. Bu sohada B.R.Qodirov, B.S.Sodiqov, E.G'.G'oziyev, V.A.Tokareva, Z.Nishonovlarning tadqiqot ishlari ma'lum bo'lib, qobiliyat, iste'dod tushunchalariga o'z ta'riflarini berganlar.

B.R.Qodirovning fikricha: «Ma'lum bir faoliyatga qiziqmay turib qobiliyat haqida gapirib bo'lmaydi. Va o'z navbatida har qanday qobiliyatli bola hali iste'dodli degani emas. Ko'p qirrali va rivojlangan qobiliyatlar

iste'dodli bola shaxsining moddiy asosini tashkil etadi, xolos. Aksincha, iste'dodli bola qobiliyatsiz bo'lishi mumkin emas». Bu fikrlardan ko'rinib turibdiki, iste'dodli bola sof fikrli, har xil qobiliyatga va umuman aqliy rivojlanishga tayyor turgan hozirjavob, nodir shaxsiy xususiyatlarga to'la boladir.

Ma'lumki, iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, saralash, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish, individual psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish vositalarini tanlash 1-kursdan boshlanadi. Bunday o'quvchilar bilan olib boriladigan ijodiy faoliyatning bir nechta yo'nalishlari bo'lib, ular – o'quv, ilmiy tadqiqot, ijtimoiy, kasbiy, badiiy, sport kabilardir.

Hozirgi vaqtda ilmiy tadqiqot ishlarining quyidagi shakllaridan keng foydalanilib kelinmoqda: kichik kurslarda o'quvchilarning ilmiy to'garaklari; yuqori kurslarda o'quvchilarning ilmiy jamiyatlarida, ilmiy konferensiyalar, xalqaro dasturlar, tanlovlar, olimpiadalarda ishtirok etishi. Ana shu asosdan kelib chiqib, akademik litseyda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning mavjud qo'yidagi tizimini ajratib ko'rsatish mumkin: 1) ilmiy to'garaklarda va ilmiy jamiyatlarda ishlash; 2) ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish; 3) ko'rik-tanlovlarda, konkurslarda, grantlarda ishtirok etish; 4) olimpiadalarda qatnashish; 5) ilmiy konferensiyalarda ishtirok etish.

Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning bunday tadbirlari ularning kelajakda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishi uchun katta maktab vazifasini bajaradi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimida bir necha yillardan bo'yon yo'lga qo'yib kelinayotgan ustoz-shogird tizimida faoliyat olib borish jarayonidagi kuzatishlar natijasida iqtidorli o'quvchilar bilan olib boriladigan ish shakllarini takomillashtirishda texnologik jarayonga asoslanishi lozimligini ko'rsatdi.

Ma'lumki, iqtidorli o'quvchilar bilan olib boriladigan ish shakllari mazkur jarayonga yaxlit tizim sifatida yondashuvni talab etadi. Bunday tizimli yondashuv o'zida tizim barcha tarkibiy qismlarining birgalikdagi faolligini ko'zda tutadi. Ana shu asosdan kelib chiqib, iqtidorli o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlarni quyidagi tartibda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, o'quvchilarning ilmiy ishlari va intellektual faoliyatini faollashtirish maqsadidan kelib chiqib, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari miqyosida hamda bo'limlar, kurslar, guruhlarda o'quvchilarning ilmiy sektorlarining keng tarmoqli strukturasi yaratish lozim. Har bir o'quvchilar guruhida ilmiy sektor yetakchisi bo'lishi kerak. Bunday strukturaning muvaffaqiyati o'quvchilarda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarining ilmiy hayoti haqida qo'shimcha axborot hosil qilishda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga o'quvchilarning katta qismidagi axborotlar

bo'shlig'ini hal etish, o'quvchilarning nashr etilgan ishlari sonini ko'paytirish, bundan tashqari bo'lim ilmiy jamiyatini yaratish imkoni hosil bo'ladi.

Ikkinchidan, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash tizimini takomillash-tirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri iqtidorli o'quvchilarni intellektual jihatdan tarbiyalash, rivojlantirish vositasi sifatidagi ilmiy tadqiqot ishlari, ilmiy ijodning shakllarini izlab topish, ularni yangi mazmun bilan boyitish kerak. Bu borada o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan «Iqtidorli o'quvchilar akademiyasi»ning ishini faollashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Akademiya o'z ishini ikki yo'nalishda: quyi kurs o'quvchilari hamda yuqori kurs o'quvchilari uchun tashkil etsa, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash bosqichma-bosqich olib borilgan bo'lar edi. Birinchi yo'nalishda o'quvchilarga tarix, milliy g'oya va ma'naviyat asoslari, axborot texnologiyalari, chet tillari kurslarini va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish bo'yicha maxsus ma'ruzalar tashkil etish, olimlar bilan uchrashuvlar o'tkazish, ilmiy munozaraga kirishish madaniyatini va malakasini shakllantirish, ilmiy nutq madaniyati va notiqlik san'atidan dars berish lozim bo'lsa, ikkinchi yo'nalishda bunday iqtidorli o'quvchilar o'z yo'nalishlarida olib borayotgan ilmiy ishlarini namoyish etish, ilmiy maqollar nashr ettirish va seminar, konferensiyalarda ilmiy ma'ruzalar o'qishga o'rganish, o'z faoliyati natijalarini o'zaro bir-birlari bilan o'rtoqlashishi, fan olamidagi yangiliklar bilan tanishib borishi kerak. Bu esa akademiyaning ilm bilan shug'ullanishni maqsad qilgan o'quvchilarning ma'naviy, intellektual, mada-niy-estetik jihatdan o'zini-o'zi rivojlantirishiga sharoit yaratib bera olishiga imkon beradi.

Uchinchidan, o'quvchilarning ilmiy faoliyatining keyingi rivoji, eng avvalo, universitetning Respublika Fanlar Akademiyasi bilan ta'lim va fan integratsiyasi jarayonlarini rivojlantirish, innovatsion faoliyatni faollashtirish, hamkorlikdagi ilmiy yo'nalishga doir ishlarni samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan faoliyatini chuqurlashtirish bilan bog'liq. Respublika Fanlar Akademiyasi bilan hamkorlikda o'quvchilarning ilmiy tadqiqotchilik va intellektual-rivojlantiruvchi faoliyatini rag'batlantirish, faollashtirish va integratsiyalash maqsadida hamda o'quvchilarning ilmiy va intellektual-rivojlantiruvchi ishlari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi Kengash tuzishni taklif etish mumkin. Bunday kengash tuzishdan asosiy maqsad ilmiy tadqiqot va ta'lim jarayonini integratsiyalash hamda fan va ta'lim sohasida yagona axborot makonini yaratishdir.

O'quvchilarning ilmiy ishlarini tashkil etish samaradorligini yanada oshirish maqsadida akademik litseyda ham muvofiqlashtiruvchi kengashlarni tuzishni taklif etish mumkin.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari muvofiqlashtiruvchi kengashi ilmiy tadqiqot va intellektual-rivojlantiruvchi faoliyat bo'yicha o'quvchilarning tashabbus va takliflarini hisobga olish, o'quvchilar va ma'

muriyat o'rtasida qaytarishli aloqani ta'minlashga imkon beradi. Muta-xassisliklari sohasidagi ilmiy izlanishlarning borishi haqida axborot bilan ta'minlaydi; o'quvchilarning ilmiy va intellektual-rivojlantiruvchi ishlarini tashkil etishni takomillashtirishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqish imkoniga ega bo'ladi.

Hozirgi vaqtda ko'pchilik o'quvchilarning ilmiy tadqiqot sohasi, nashr etgan ilmiy ishlari bilan tanishish natijasida ularning aniq bir belgilangan mavzu doirasida ish olib bormayotganligi ko'zga tashlanadi. Muvofiq-lashtiruvchi kengash esa iqtidorli o'quvchilarning ilmiy ishlari mavzularini belgilash, ularni doimiy ravishda mazkur tadqiqot muammosi doirasida faoliyat olib borishlariga yo'naltiradi hamda nazoratni amalga oshiradi. Natijada iqtidorli o'quvchilarning vaqt budjetini to'g'ri taqsimlash, ularni jismoniy va ruhiy jihatdan toliqishlarining oldi olinadi, bilishga qiziqish va ishtiyoq motivatsiyasi hosil bo'ladi.

To'rtinchidan, ma'lumki, bugun barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'p yangilik kiritishga intilmoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir. Novatorlikka qiziqish uyg'otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'limning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlarni tashkil etish doimiy ravishda ish shakllarini in-novatsiyalab borishni taqozo etadi. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning innovatsion shakllariga Internet-konferensiyalar, forumlar, akademik litsey, yo'nalish, kafedra saytlari, ijtimoiy loyihalar tanlovlari kabilarni kiritish mumkin.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida telekommunikatsiya vositalari yordamida telekonferensiyalar tashkil etish bo'yicha yaxshi tajriba mavjud. Mazkur tajribani iqtidorli o'quvchilarning boshqa akademik litsey iqtidorli o'quvchilari bilan hamkorlikda telekonferensiyalarni tashkil etish, ular o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri jonli munozaralarni tashkil etish ularning ilmiy muloqot ko'lamini kengaytirishga yaqindan yordam beradi.

Beshinchidan, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash faqat ilmiy tadqiqot-chilik tavsifiga ega bo'lib qolmasligi zarur. Chunki iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash tizimi ularning ijtimoiylashuv masalasini ham o'zida aks ettiradi. Bunday yo'nalishdagi ishlarga insonparvarlik tarbiyasida o'quvchilarning rolini oshirish, tolerantlikni shakllantirish, ekstremizmga murosasiz bo'lish, ijtimoiy adolat tuyg'usini tarkib toptirish; sog'lom axloqiy-psixologik muhitni yaratishni ham kiritish to'g'ri bo'ladi. Chunki bunday fazilatlariga ega iqtidorli o'quvchilar o'zlari bilan birga tahsil olayotgan kursdoshlari, guruhdoshlari bilan muloqotda ularga har tomonlama ijobiy ta'sir etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ham «Iste'dodli yoshlarimizning,

yigit-qizlarimizning o'z qiziqqan sohalarida yetuk insonlar bo'lib yetishishi uchun tegishli shart-sharoitlarni to'la yaratish» lozimligini qayta-qayta ta'kidlab o'tgan. Shunday ekan, iqtidorli o'quvchilarni tanlash, ularning ilmiy tadqiqotchilik va intellektual-rivojlantiruvchi faoliyatiga kompleks yondashuv, mavjud ilmiy tadqiqotchilik va intellektual-rivojlantiruvchi tadbirlarni tizimlashtirish, yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mazkur muammoni samarali hal etishga keng imkoniyatlar yaratadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning muhim yo'nalishi ularni ilmiy tadqiqot faoliyatiga jalb etishdir. Bugungi kun yoshlarni ilmiy tadqiqot ishlariga maqsadli yo'naltirishga katta talab borligini ko'rsatib turibdi. Bu talabni amalga oshirish vazifasidan kelib chiqqan holda o'quvchilarning ilmiy tadqiqot ishlariga oid faoliyatini shakllantirishda quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish lozim (1.2.1-jadval).

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari o'quvchilarning ilmiy tadqiqot ishlariga oid faoliyatini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari

1.2.1-jadval

1.	Yuqori darajadagi bilimdonligi
2.	Ilmiy tafakkurga ega ekanligi
3.	Analitik fikrlash qobiliyatining yuqoriligi
4.	Sintetik fikrlash qobiliyatining yuqoriligi
5.	Tadqiqotchilik qobiliyatining kuchliligi
6.	Mantiqiy fikrlash qobiliyatining ustunligi
7.	Yangilikka intiluvchanligi
8.	Ilmiy ijodiy faolligi
9.	Izlanuvchanlik qobiliyatiga ega ekanligi
10.	Yaratuvchanlik qobiliyatiga ega ekanligi
11.	Kashfiyotchilik qobiliyatiga ega ekanligi
12.	Ijtimoiy vaziyatlarni baholay olishi
13.	Ilmiy dunyoqarashning keng qamrovliligi
14.	Mustaqil, erkin va to'g'ri fikrlay olishi
15.	Muammoli vaziyatni to'g'ri baholay olishi
16.	Ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishi
17.	Tashkilotchilik va tashabbuskorligi
18.	Mas'ullik hissining qaror topganligi
19.	Ilmiy munozaraga kirisha olishi, dalillash, isbotlash layoqatining kuchliligi

20.	Ilmiy-texnikaviy hamda ilmiy jamiyatlarning ishlariga keng ko‘lamda jalb etilganligi
21.	Ilmiy ishga sadoqat, muayyan fanga muhabbat
22.	Tadqiqotchilik ko‘nikma va malakalarining shakllanganligi
23.	Ilmda halollik va talabchanligi
24.	Ilmiy bilimlarini, kashfiyotini amaliyotga tatbiq eta olishi
25.	Tanqidga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi
26.	Ijtimoiy - siyosiy faolligi
27.	O‘ziga bo‘lgan ishonchi
28.	Ilmiy tadqiqotchilikka oid madaniyatning yuqori darajada shakllanganligi

Albatta, jadvalda o‘z ifodasini topgan o‘quvchilarning ilmiy tadqiqot ishlariga oid faoliyatini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlariga so‘nggi nuqtani qo‘yib bo‘lmaydi. Chunki ular davr o‘tishi bilan o‘zgarib, takomillashib boradi.

Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash tizimli tavsifga ega bo‘lib, ularning intellektual sifatlarini shakllantirish bilan bog‘liqdir (1.2.1-rasm).

O‘quvchining ijodiy intellektual salohiyatini rivojlantirish jarayonini shakllantirishda quyidagi jihatlar e‘tiborga olinishi kerak:

1) intellektual salohiyatni rivojlantirish jarayoni maksimal darajada texnokratik bo‘lishi kerak. Buning uchun pedagogik texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish lozim;

2) intellektual salohiyatni rivojlantirish ta‘lim-tarbiya jarayoniga singdirilishi ko‘zda tutilayotgan tegishli texnologiyalarni ilmiy asoslash va ishlab chiqish lozim;


3) intellektual salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatning dastlabki bosqichida ijtimoiy-psixologik muhitni aniq tahlil qilish hamda taktik jarayonni mukammal ishlab chiqish kerak.

Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashning muhim yo‘nalishi ularni ijtimoiylashuvi bilan bog‘liqdir. Ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta‘siri ostida shakllanish jarayoni, bir-birlari bilan muloqotda bo‘lishlarini ifodalasa, ijtimoiylashtirish tushunchasi esa, jamiyatning muvafaqqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma va qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonidir⁵. Ijtimoiy-falsafiy, psixologik va pedagogik tadqiqotlar jarayonida shaxs ijtimoiylashuviga xos bo‘lgan quyidagi holatlar aniqlangan:

1) shaxsning ijtimoiylashuvida ayrim davrlarning va bir davrdan ikkinchi davrga o‘tish jarayonida ro‘y beruvchi ijtimoiy omillar (mega

⁵ Falsafa: qomusiy lurat (Tuzuvchi va mas‘ul muharrir Q.Nazarov). – T.: Sharq, 2004. – B.173-174.

omillar, makro omillar, mezo omillar, mikro omillar), voqeliklar hamda ularning ta'siri yetakchi o'rin tutadi (J.Piaje, A.V.Mudrik);



1.2.1-rasm. Iqtidorli o'quvchilarning intellektual sifatlari.

2) bolaning kamol topishi, shaxs bo'lib shakllanishida ijtimoiy, xususan, ota-onalar va bola o'rtasidagi munosabatlar, ularning o'zaro hissiy birligi muhim ahamiyatga ega (Z.Freyd);

3) shaxs muayyan sxemalar hamda kognitiv tuzilmalar yordamida boshqariladi; shu sababli uning ana shu sxema va kognitiv tuzilmalarga moslashuvi ijtimoiylashuv mohiyatini anglatadi (J.Piaje);

4) shaxs ijtimoiy ta'sirlar yordamida ilmiy bilimlar hamda kishilik madaniyati unsurlarini o'zlashtiradi, ularning negizida esa u aqliy jihatdan kamol topadi va axloqiy sifatlarga ega bo'ladi – mazkur holat shaxs ijtimoiylashuvining ustuvor jihati hisoblanadi (T.Persons, R.Beyla);

5) shaxsning ijtimoiylashuvi turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyat rivojining muayyan davrlarida bir xil kechmaydi; har bir davri shaxsning ijtimoiylashuvida o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi (R.Benedikt, M.Mid);

6) ijtimoiylashuv bolalikkagina xos xususiyat bo'lmay, shaxs hayotining barcha davrlarini qamrab oladi (Z.Freyd, T.Persons, R.S.Nemov)⁶.

Bizning tadqiqotimiz doirasida mazkur tushunchaning mohiyati A.V.Mudrik tomonidan berilgan ta'rifga ko'proq mos keladi: «Ijtimoiylashuv – madaniyatni o'zlashtirish va qabul qilish jarayonida insonning rivojlanishi hamda o'z-o'zini o'zgartirib borishidir»⁷.

Demak, ijtimoiylashuv – insonning uning barcha yosh bosqichlaridagi tabiiy, maqsadli yo'naltirilgan hayot sharoitlari bilan o'zaro muvofiqlikda sodir bo'ladigan, madaniyatni egallashi va qayta tatbiq etishi jarayonidagi rivojlanishi va o'z-o'zini o'zgartirib borishidir. Mazkur jarayonda pedagogning eng asosiy vazifasi – insonning mustaqil fikrli, jamiyatdagi o'z o'rnini va shaxsiy orzu-intilishlari yo'nalishini anglaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlashga qodir shaxs bo'lib yetishishiga erishishdan iboratdir. Ushbu holatda, pedagogik faoliyat esa muhim bunyodkor ijtimoiy vazifani bajaradi: bu jarayonda nafaqat yaxlitlikda shaxs shakllanadi, balki mamlakatning kelajagi aniqlanadi, uning madaniy va ishlab chiqarish salohiyati ta'minlanadi. Pedagogik faoliyatning kelajakni oldindan ko'ra olish bilan bog'liqlikdagi tavsifi uning maqsadlarining ko'p qirraliligini, faqat bugungi kun uchun shaxs va jamiyat ehtiyojlarini qondirish-nigina emas, balki kelajak uchun yo'naltirilganligini, yosh mutaxassislarni ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatga moslashuvinigina emas, ularning faoliyat sohasini innovatsiyalanib borishini ham aniqlab beradi.

Ma'lumki, ijtimoiylashuv shaxsning jamiyatdagi qadriyatlarni qabul qilishi va zaruriy darajada ijtimoiy, fuqaroviy va shaxsiy yetuklikka erishishi asosida jamiyatga kirib borishidir⁸. Shaxsning ijtimoiylashuvi esa, inson o'zini jamiyatda shaxs sifatida anglab borishi jarayonidir. Bu tarbiya, ta'lim, o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida yuzaga kelib, inson qachonki, o'z maqsadlarini mustaqil aniqlay olsa va ularga erishish yo'llarini belgilay olganida, o'z qadr-qimmatini anglab yetganida, jamiyatdagi o'z o'rniga ishonch hosil qilgan taqdirda amalga oshadi. Boshqacha aytganda, shaxsning ijtimoiylashuvi – ta'lim-tarbiya ta'sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yor va qoidalarining o'zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi.

Ijtimoiylashuvning mufassal tavsifini va uning pedagogik faoliyatdagi o'rnini A.M.Stolyarenko quyidagicha keltirib o'tadi:«...Ijtimoiylashuv jarayoni o'zining sifat xususiyatlariga, tarkibiga, qonuniyatlariga, omillariga, shart-sharoitlariga, boshqarilishiga va ijtimoiylashgan insonda namoyon bo'lishiga (uning xususiyatlari, sifatleri, o'ziga xosliklari) ko'ra

⁶ Сластѣнин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. В 2 ч. – М.: ВЛАДОС, 2003. – Ч.1. – С.8-9.

⁷ Мудрик А.В. Основы социальной педагогики. – М.: АКАДЕМА, 2006. – С.7.

⁸ Заньина Л.В., Меньшикова Н.П. Основы педагогического мастерства. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. – Б.43.

murakkabdir». Ana shu sababli u o'zida turli fanlar tomonidan ko'rib chiqiladigan ijtimoiylashuvning xilma-xil – madaniy, axloqiy, huquqiy, mehnat, psixologik ko'rinishlarini aks ettiradi. Pedagogika haqida gap ketganda esa, bu sohadagi ijtimoiylashuv jarayoni pedagogikaning predmeti, sohasi va ehtiyojlarining o'ziga xosligini hisobga olib, pedagogik ijtimoiylashuv turi sifatida alohida e'tibor bilan qarab o'tiladi. Bu insonning dunyoga kelgan vaqtidan boshlab ijtimoiy belgilangan va muhim pedagogik yangidan shakllanuvchi tajribalarni – tarbiyalanganlik, ta'lim olganlik, ma'lumotlilik va rivojlanganlik hamda ularning kelgusidagi butun umri mobaynida muttasil o'zgarib borishi (mukammallashuvi) jarayoni va yuzaga kelish natijasidir.

Bu holda shaxsga nisbatan sust ravishda yondashuv kuzatilmaydi, balki u ijtimoiy munosabatlarning va pedagogik tizimning subyekti sifatida, tajriba egallashda faollik va mustaqillikni namoyon qiluvchi hamda o'z-o'zini shakllantiruvchi, shu bilan birga o'z hayot yo'li uchun javobgarlikni his etuvchi subyekt sifatida qaraladi. Pedagogikaning vazifasi – insonga fikrlovchi shaxs, o'z davlatining va jahonning fuqarosi bo'lib yetishishiga, jamiyatda o'z o'rmini va xulq-atvorini, o'z istak-maqсадlarini yo'nalishini anglaydigan, pedagoglar va jamiyatdagi pedagogik tizim bilan birgalikda umuminsoniy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlashga yo'nalgan shaxs bo'lishiga yordam berishdir»⁹.

Iqtidorli o'quvchilarning ijtimoiylashuvida quyidagi bosqichlarni hisobga olish alohida ahamiyat kasb etadi:

1. Boshlang'ich jamoalashuv yoki moslashuv bosqichi. Bunda o'quvchi tomonidan ijtimoiy tajriba o'zlashtiriladi, moslashtiriladi va qabul qilinadi.

2. Individuallashuv bosqichi. Bunda o'quvchilarni o'z ustida mustaqil ishlashlari va mustaqil fikrlarini ruyobga chiqarishda o'zining mustaqil fikrini bildirish istagi, jamoat xulq normalariga nisbatan ijobiy hamda tanqidiy fikrlash paydo bo'ladi.

3. Integratsion bosqich. O'quvchi jamiyatda o'zi o'rmini topish, jamiyat hayotiga kirishish, atrofda qilarga ijobiy tomondan tanilish, faoliyatda o'zini ijobiy tarafdin ko'rsatish harakatiga tushadi, ya'ni shaxs sifatida o'zini tanitish istagi birinchi o'ringa chiqadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, agar shaxsning ijodiy izlanishi, intellektual salohiyatini ko'tarish harakatlari biror ijtimoiy guruh yoki jamiyat tomonidan qabul qilinsa, integratsion bosqich muvoffaqiyatli o'tadi. Mabodo buning aksi bo'lsa, quyidagi holatlar kelib chiqadi:

– o'quvchida norozichilik kayfiyati paydo bo'lib, tushkunlik holatiga tushadi;

– o'zi harakatlarini tahlil qilib, o'zini o'zgartirishga harakat qiladi;

⁹ Столяренко А.М. Общая педагогика. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006. – С.25.

– o‘quvchi o‘zida tashkilotchilik, yetakchilik, o‘zini ko‘rsatish kabi hislatlarni jilovlab, mavjud muhitga moslashish harakatiga tushadi.

4. Ijtimoiy faoliyat bosqichi. Bu bosqich inson balog‘atga yetgan davrdan boshlab, hayotining oxirigacha davom etadi. Shaxsning o‘zini-o‘zi tarbiyalash jarayoni, ya‘ni o‘zining intellektual salohiyatini tashqi va ichki omillar ta‘sirida shakllantirib boradi. Bunda mehnat jamoasidagi ijtimoiy-psixologik muhit katta ahamiyatga ega.

Iqtidorli o‘quvchilarning muvafaqqiyatli ijtimoiylashuvi akademik litseylarda quyidagi ishlarni amalga oshirishni talab etadi:

1) I-III bosqich o‘quvchilarining ma‘lumotlar bazasini yaratish. Ma‘lumotlar bazasi o‘quvchi shaxsiga tegishli barcha ma‘lumotlarni qamrab olishi kerak.

2) akademik litseydagi ijtimoiy muhitning aniq tahlilini amalga oshirish. Aynan muhit qanday darajada ekanligi o‘quvchi tarbiyasiga, uning intellektual ijodiy salohiyatining shakllanishiga ijobiy yoki salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Muhit tahlili quyidagi ko‘rinishda amalga oshirilishi kerak:

a) mavjud ijtimoiy muhitning asl holatini, intellektual salohiyatni rivojlantiruvchi harakatlarini aniqlash;

b) o‘qituvchilarning ijtimoiy muhitga munosabatini aniqlash;

d) o‘quvchilarning ijtimoiy muhitga, akademik litsey rahbariyati olib borayotgan faoliyatga munosabatini aniqlash;

e) o‘quvchilar orasidagi ijtimoiy fikrni o‘rganish;

f) yuzaga kelayotgan va yechimini kutayotgan muammolarni aniqlash.

g) o‘quvchilarning ilmiy-ijodiy faoliyatini oshiruvchi aniq reja va dasturini ishlab chiqish.

Muhit tahlili asosida ishlab chiqilgan reja va dasturda eng avvalo, bajarilishi kerak bo‘lgan dolzarb ishlarni belgilab olish kerak. Bunda quyidagilar aniq ko‘rsatilishi lozim:

1) akademik litseyda amalga oshiradigan ijodiy va tarbiyaviy ishlar;

2) o‘quvchilar uyida amalga oshiriladigan intellektual musobaqa va ijodiy ishlar;

3) jamoat tashkilotlari, turli jamg‘armalar va homiy tashkilotlar bilan amalga oshiriladigan ishlar;

4) akademik litsey, yo‘nalish, bo‘limlar miqyosidagi tadbirlar;

5) o‘quvchilar o‘zini-o‘zi boshqaruvi organi amalga oshiradigan ishlar;

6) o‘quvchilarda g‘oyaviy immunitetni shakllantirishga doir ishlar;

7) salbiy oqimlar, zararli g‘oyalarga qarshi kurash muhitni shakllantirish.

3) o‘quvchilarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayonining monitoringini yaratish. Amalga oshiriladigan barcha ishlarning yagona monitoringini shakllantirish orqali, jarayonni bevosita kuzatish imkoni yuzaga keladi. Bundan tashqari jarayonning borishini tahlil qilish mumkin.

II bob. IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING DIAGNOSTIK TIZIMI

2.1. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda qo'llaniladigan diagnostik metodlar mazmuni

Rus olimi V.M.Ekzemplarskiy iqtidorli bolalarni aniqlash va o'rganish uchun birinchilardan bo'lib diagnostik metodlardan foydalangan. U iqtidorli bolalar uchun maxsus maktablar yaratib, maxsus dasturlar ishlab chiqish lozimligini taklif qilgan. 1920-yillarning boshlarida tadqiqotchi bu muammoni o'rganuvchilar faqatgina yaxshi taraqqiy etgan qobiliyatlarinigina o'rgangishga moyil bo'lib, ular orasidagi o'zaro bog'liqlikni tadqiq qilishganligini ta'kidlagan. U iqtidorlilikni faqatgina intellektual soha bilan bog'langan tadqiqotlarga o'z tanqidiy munosabatini bildirgan. U o'z ishlarida shaxs iqtidorlilikini diagnostika qilish muammosiga asosiy e'tiborni qaratgan. 1920-yillar oxiri 1930-yillarning boshlarida iqtidorlilik muammosini o'rganishda oldinga siljish kuzatildi. Katta hajmdagi psixologik diagnostik metodikalar iqtidorlilikni aniqlovchi testlar ishlab chiqildi va amalga tatbiq qilindi. Bularning bari Yevropa Amerika tadqiqotlari asosida amalga oshirildi.

Iqtidorli bolani aniqlash muayyan bir bola taraqqiyotini tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgan uzviy jarayondir. Iqtidorlilikni qandaydir test orqali aniqlash mumkin emas. Shuning uchun iqtidorli bolalarni bir vaqtda aniqlashdan ko'ra bosqichma-bosqich ularni ta'lim jarayonida, individual ta'lim jarayonida aniqlab borish zarur.

Iqtidorli bolalarni aniqlashning axloqiy jihatlari bor. Bolani «iqtidorli» yoki «iqtidorsiz» deb ajratish uchun oldindan subyektiv ko'rinishni inobatga olgan holda su'niy ravishda bola hayotiga aralashish kerak. «Iqtidorli» va «iqtidorsiz» muvafaqqiyatlarini noto'g'ri prognozlash oqibatida kelib chiqadi. Bolalar iqtidori kattalar talantiga olib kelmasligi ham mumkinligini inobatga olish kerak. Shunga muvofiq har qaysi talantli kattalar bolaligida iqtidorli bo'lmagan. (Mendeliyev misolida). Yuqoridagilarni inobatga olib iqtidorli bolalarni aniqlashning quyidagi tamoyillarini ko'rsatish mumkin.

1. Bola faoliyati va xulqini har tomonlama boholashning kompleks xarakterga ega ekanligi.

2. Uzoq muddatli kuzatish (bolani turli vaziyatlarda kuzatish).

3. Bolaning xulq-atvoridan maksimal darajada qiziqtiruvchi va moyiligi kuchli faoliyat sohasida xulq-atvorini tahlil qilish.

4. Rivojlantiruvchi ta'sirga ega bo'lgan trening usullarini qo'llash.

5. Iqtidorli bolalarni baholash uchun ekspertlarni jalb qilish.

6. Bola iqtidorini baholashda faqatgina uning psixologik taraqqiyotini aktual darajasini emas, taraqqiyotning yaqin zonasini ham inobatga olish zarur.

7. Faoliyat mahsulini tahlil qilish kuzatish suhbat, ekspert bahosi tabiiy eksperiment metodlarini qo'llash.

Iqtidorlilikni aniqlashda dastlabki bahoga tayanib bo'lmaydi. Iqtidorli bolalarni aniqlash uchun kompleks yondashuv kerak. Bunda turli metodlarning keng ko'lami qo'llanilishi mumkin: bolani kuzatishning turli variantlari psixodiagnostik treninglar bola xulqini ota-ona, o'qituvchilar tarbiyachilar tomonidan ekspert bahosi maxsus dastur asosida, «Sinov» darslarini o'tkazish, shuningdek, bolalarni maxsus o'yinli va predmetiga yo'natirilgan mashg'ulotlarga jalb qilish bola ijodiy faoliyatini maxsus mutaxassislar tomonidan baholanishi intellektual olimpiadalarni tashkil qilish musobaqalar, tanlovlar uyushtirish orqali ularning xulq-atvorini kuzatish va tahlil qilish mumkin. Biroq iqtidorli bolalarni aniqlashga kompleks yondashuv ham kamchiliklardan holi emas. Natijada iqtidorli bola «tushib» qolishi yoki buning aksi iqtidorsiz bola iqtidorlilar qatoriga kirib qolish mumkin. «Iqtidorli» yoki «iqtidorsiz»larni diagnostika qilishda ehtiyot bo'lmoq lozim. chunki birgina so'z bola shaxsiga salbiy ta'sir etish mumkin. Ijtimoiy muhitning rolini inobatga olgan holda iqtidorli bolalarni aniqlashning maxsus metodini yaratish talab etiladi.

Demak: iqtidorli bolalarni aniqlash juda murakkab jarayon bo'lib mutaxassislardan yuqori malakani talab qiladi. Psixodiagnostika metodlari har bir shaxs, ayniqsa o'qituvchi iqtidorli bola haqida tushunchaga egadir bu tasavvurlarni shakllanishiga bizning turli bolalar bilan muloqotda bo'lishimiz, ularni kuzatishimiz va o'zaro qiyoslashimiz asos bo'lib xizmat qiladi. Lekin bu tasavvurlar subyektivlikdan yiroq emas. Qolaversa, iqtidorlilik haqidagi tasavvurlar jamiyat ehtiyojiga bog'liq holda o'zgarib turadi. Turli tarixiy davrlarda iqtidorlilikning turli ko'rinishlari bo'lgan: qadimda jangovor qobiliyatlar qadrlangan. O'rta asrlarda g'arb falsafasida mantiqiy fikrlovchi e'zozlangan bo'lsa, bizning davrimizda muammoni hal qilishda yangilikka, noan'anaviylikka intilish hayotiy chigalliklarni yecha olish qobiliyati tushuniladi. Agar biz 4 yoshli bolani mustaqil kitob o'qiyotganini, 5 yoshli bolani mustaqil musiqa bastalayotganini, 9 yoshli bolani oliy matematika tenglamalarini yechayotganini ko'rsak, ularning iqtidoriga shubha qilmaymiz. Unutmaslik kerakki, boladagi iqtidorning namoyon bo'lishi uchun muayyan sharoit kerak va ular orasida eng muhimi – iqtidorni baholay oladigan, ko'ra oladigan, uni namoyon qilishga yordam beradigan insondir. Bu ilk bolalik davrida muhim o'ringa egadir. Agar bola erta o'z tilida gapira boshlasa, qiziquvchan bo'lsa, nutiqni faol o'rgansa, lekin bu intilishlar kengaymasa, to'xtab qolsa, bu odatda erta namoyon

bo'lgan iqtidorning rivojlanmayotganidan dalolat beradi. Bunday hollar maktab yoshida ham kechishi mumkin. Demak, bola iqtidori haqida gapirganda faqatgina faoliyat natijalariga u yoki bu sohadagi yutuqlariga qaramaslik kerak, chunki iqtidorli bolalarning o'z qobiliyatini namoyon qilish uchun imkon bo'lmagan bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham iqtidorli bolalarni izlash, ularning individual yosh, shaxsiy xususiyatlarini psixodiagnostika qilish zarur har qanday soha kabi psixodiagnostika ham yuqori malakani talab qiladi. Hozirda psixodiagnostika maktab amaliyotiga keng kirib borayotganligi bois uning metod va yo'l-yo'riqlari bilan o'qituvchilar, ota-onalarni tanishtirib borish zarur.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ta'lim muassasalarida psixodiagnostik tadqiqotlarning tashkil etilishiga va o'tkazilishiga ma'lum bir talablar qo'yiladi. Ular quyidagilardir:

1. Tadqiqotlarni rejalashtirish. Metod va metodikalarni tanlash va ularni sinab ko'rish.

2. Tadqiqotni o'tkazish joyi.

3. Tadqiqotni texnik jihozlash.

4. Tadqiq qiluvchilarni tanlash.

5. Tadqiqotchi, shubhasiz, tadqiqotning borishiga ta'sir etadi va tadqiqotni rejalashtirishdan to xulosa va tavsiyalar chiqarishga qadar ma'suliyatni his qiladi va bu muhim ahamiyatga ega.

6. Ko'rsatma – u aniq va qisqa bo'lishi lozim.

7. Tadqiqot qoidasi bayonnomaga to'liq va maqsadga yo'nalgan bo'lishi kerak.

8. Tadqiqot natijalarini qayta ishlash.

B.G.Ananev iqtidorli bolalarni aniqlashning diagnostik metodlarini turli guruhga ajratib, o'rgangan:

a) tashkiliy guruhga - qiyoslash, longityud, kompleks metodlari kiradi;

b) emperik guruhga kuzatish, eksperiment, suhbat, so'rovnoma, test, faoliyat mahsulini o'rganish metodi, biografiya, sotsiometriya;

d) natijalarni qayta ishlash yoki statistik metodlar;

e) sharhlash guruhiga genetik va donalash metodlari kiradi.

B.G.Ananev tomonidan ajratilgan klassifikatsiyaga ko'ra, tadqiqot ishlarida foydalaniladigan asosiy metodlar emperik guruh metodlari hisoblanadi.

Tadqiqot metodlarining birinchi tashkiliy guruhi o'z ichiga qiyoslash, longityud (uzluksiz), kompleks (ko'pyoqlama) deb ataladigan turlarni qamrab oladi.

Qiyoslash metodidan – umumiy natijalarni bir xilligini qiyoslash natijasida iqtidorli bolalarni aniqlash mumkin. Ya'ni ta'lim muassasalaridagi o'qituvchilarni, sinf rahbari, maktab psixologi va ota - onaning bola haqidagi tassavvur va fikrlari bir-biriga mos kelishi kerak. Hamda umumiy psixo-

logiya, ijtimoiy psixologiyada katta yoki kichik guruhlarni hamda ularning har xil toifalarini o'zaro taqqoslash uchun, medicina psixologiyasida – sog'lom va bemor kishilarning psixik xususiyatlarini qiyoslash maqsadida, sport psixologiyasida sportchilarning holati, o'quvligini va ishchanligini o'zaro taqqoslash maqsadida foydalaniladi.

Qiyoslash metodi bir xil yoshdagi, turli yoshdagi odamlarning bilish jarayonlari shaxs xususiyatlari, bilimlarni o'zlashtirish, aqliy qobiliyati, salohiyati, rivojlanish dinamikasi, jinslarning tafovutlari va o'ziga xosligini o'rganishda qo'llaniladi. Psixologlardan L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, A.A.Smirnov, B.G.Ananev, D.B.Elkonin, P.Galperin va ularning shogirdlari olib borgan tadqiqotlar (chaqaloqlik, go'daklik, ilk bolalik, kichik maktab yoshi, o'smirlik, o'spirinlik yosh davrlarini o'zaro solishtirish) shu metoddan foydalanib amalga oshirilgan.

Longityud metodining boshqa metodlardan farqi bir yoki bir nechta sinaluvchilar uzoq muddat, hatto o'n yillab tekshiriladilar. Bu metod iqtidorli o'quvchilarni aniqlashda unchalik qo'llanmasligi mumkin, chunki yuqorida aytilganidek, bu metod ko'p vaqtni olishi mumkin. Longityud metodidan nemis psixologi V.Shtern, fransuz psixologi R.Zazzo, rus psixologlari N.A.Menchinskaya, A.N.Gvozdev, N.S.Leytes, V.S.Muxina va boshqalar ko'p yillardan beri foydalanmoqdalar.

Mazkur metod orqali bir xil jinsli (Hasan-Husan, Fotima- Zuhra yoki aralash jinsli Hasan - Zuhra, Fotima- Husan) egizaklar kuzatilishi ham mumkin. Longityud metodi yordamida subyektiv omillarning o'ziga xosligini obyektiv shart - sharoitlari va ijtimoiy muhitning sinaluvchiga ta'siri o'rganiladi. Chunonchi egizaklarning o'xshashligi va tafovuti, ta'sirlanishi, his-tuyg'uni o'zgarishi kishilar o'rtasidagi individual farqlar (ishchanligi, temperamenti, oliy nerv faoliyati tizimi va hokazo) bo'yicha ma'lumotlar olish longityud metodi orqali amalga oshiriladi.

Kompleks metodi – yordamida o'rganilgan obyektidagi o'zgarishlar turli nuqtayi nazardan tahlil qilinadi yoki ularga har xil yondashiladi. Masalan, bolada oddiy bilimlarni o'zlashtirish xususiyati psixologik jihatdan tekshirilayotgan bo'lsa, kompleks yondashish ta'sirida ana shu o'zlashtirishning falsafiy, mantiqiy, fiziologik, ijtimoiy, biologik xususiyatlari yoritiladi. Aytaylik, keksayishning biologik omillarini o'rganish, uning psixologik, fiziologik, mantiqiy jihatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqot metodlarining uchinchi guruhi natijalarni qayta ishlash bo'lib, ular statistik (miqdor) va psixologik (sifat) tahlil turlariga bo'linadi.

Ilmiy tadqiqot metodlarini sharhlash guruhi genetik va donalash metodlaridan iboratdir.

Genetik metod – bilan tadqiqot davomida tugallangan ma'lumotlar yaxlit holda, maqsadga muvofiq tarzda sharhlanadi. Ya'ni bu metod iqtidorli bolalarni aqliy o'sishi, ularning jismoniy holati bilan o'zaro bog'liqligini

tadqiq qilishda qo'llaniladi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, masalan, o'smirlarda *akseliratsiya* jarayoni natijasida ularning nafaqat jismoniy, balki aqliy yetukligi ham jadallashadi. Bu metoddan foydalanishning yana bir asosiy maqsadi sinaluvchida vujudga kelayotgan ichki, jamiki obrazlarning rivojlanishi, faoliyat va bilish jarayonlarining o'zgarishiga tajriba natijasiga suyanib ta'rif va tavsif berishdir. Shuningdek, bunda mazkur fazilat va xususiyatlarning namoyon bo'lish davri, bosqichi hamda ba'zi mashaqqatli daqiqalarga, holatlarga qo'shimcha sharhlar berish imkoniyati tug'iladi.

Genetik metodga asoslanib iqtidorli bolalarning aqliy, psixik o'zgarishlar bilan jimoniy rivojlanish bosqichlarining bevosita bog'liqligi ildizi aniqlanadi.

Donalash metodi tadqiqot obyektiga kirgan shaxs psixikasidagi barcha o'zgarishlardagi o'ziga xoslik, o'zaro aloqa, o'zaro ta'sir va uyg'unlikning o'zaro bog'lanishlari o'rganiladi. Jumladan, ta'lim muassasasidagi o'quvchilarni xulqini o'rganish uchun sezgi, idrok, xotira, tafakkur jarayonlarining bir paytda, birgalikda tadqiq qilinishi bunga yorqin misoldir. Bunda har bir bilish jarayonining usuli ifodalanaadi yoki uning ahamiyati alohida ta'kidlanadi, ularning o'zaro bog'liqligi asoslab beriladi.

Donalash metodi yordamida iqtidorni, qobiliyatni bixevoristik tomondan o'rganish imkonini beradi. Ya'ni bolalardagi iqtidorlilik, ulaning xulq – atvorida nomoyon bo'lishi muammolarini o'rganadi.

Empirik metodlar guruhi o'z navbatida ikkiga, ya'ni **asosiy va yordamchi** metodlarga bo'linadi. Asosiy metodlarga kuzatish va eksperiment metodlari kirsa, yordamchi metodlarga *suhbat, so'rovnoma, test, sotsiometriya va faoliyat natijalarini tahlil qilish* kabi metodlarni kiritish mumkin.

Kuzatish metodi – ikki xil bo'lib, obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) kuzatish turlari mavjud. Inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- a) kuzatishning maqsad, vazifasi belgilanadi;
- b) kuzatilayotgan obyekt tanlanadi;
- c) tadqiqot o'tkazish vaqti rejalashtiriladi;
- d) kuzatish qancha davom etishi qat'iy lashtiriladi;
- e) kuzatish insonning qaysi faoliyatida (o'qish, o'yin, mehnat, sport) amalga oshirilishi aniqlanadi;
- f) kuzatishning shakli (yakka, guruh, jamoa) tanlanadi;
- g) kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari (kundalik suhbat daftari, kuzatish varaqasi, magnitafon, videomagnitafon) tayyorlab qo'yiladi.

Kuzatish metodi iqtidorli bolalarga yondashishida ularning individual xususiyatlarini kuzatmasdan hech narsaga erishib bo'lmaydi. Kuzatish metodining yutug'i shundaki, u tabiiy sharoitlarda olib boriladi. Obyektini uni o'ziga bildirmasdan kuzatish mumkin. Ushbu metodning yuzaga kelishida

M.Ya.Basovning xizmatlari katta. U kuzatish obyektiga nisbatan munosabatga ko'ra kuzatuvning 3 tip ustanovkasini ajratgan:

1-tip ustanovka – kuzatuv jiddiy maqsad asosida amalga oshirilib, faqatgina zarur sifatlarga inobatga olinib, qolganlariga e'tibor qaratilmaydi.

2-tip ustanovka – kuzatuvchi avvaldan qabul qilingan (-)ni nazardan holi bo'lib, kuzatiluvchi haqida aniq ma'lumotga ega bo'lish.

3-tip ustanovka – qandaydir tayyorgarlik bo'lmaganda va obyekt diqqat markaziga kelish bilan kuzatuv boshlanadi. Keyin esa olingan natijalar asosida iqtidorli bolalarning dastlabki xarakteristikolari tuziladi.

A.F.Lazurskiy ishlarida kuzatish metodi xarakteristikalarni rasmiylashtirishning 2 uslubini uchratish mumkin: ma'lum ketma-ketlik asosida ma'lumotlar tekshiruvini tuziladi, xarakteristika oxirida - rezyume beriladi, tadqiqotchi avval keltirilgan sifatlarni emas, ayni vaziyatlarda yaqqol ko'ringan xislatlarni faktlar asosida isbotlab, ilgari surishi kerak.

Kuzatish orqali turli yoshdagi odamlarning diqqati, his-tuyg'ulari, asab tizimining tashqi ifodalari, imo-ishoralari, sezgirligi, xulq-atvori, nutq faoliyati kabilar o'rganiladi. Ammo o'ta murakkab ichki kechinmalar, yuksak hissiyotlar, tafakkur, mantiqiy xotira va aql zakovatni tadqiq etishga bu metodning imkoni yetmaydi.

Masalan, o'spirin yoshlarning sport faoliyatini kuzatish orqali ularning irodasi, ishchanligi, his-tuyg'usining o'zgarish xususiyatlari, talabga intilish, o'z harakatini idora qila olish yuzasidan materiallarni yig'ish mumkin.

Tashqi kuzatishda ba'zan tafakkur bo'yicha ham ma'lumotlar olish mumkin. Ish ustidagi kayfiyatni, chegradagi tashvish va iztirobni, sinchkovlik kabi ruhiy holatlarni kuzatib, tafakkurdagi o'zgarishni aniqlash mumkin. Bundan tashqari, qo'lning titrashi, asabiylashish, nutqning buzilishi ham insonning ruhiyatidagi o'zgarishlar bo'yicha ma'lumotlar beradi. Psixologiyada o'z-o'zini kuzatish, ya'ni interospeksiya metodidan ham foydalaniladi, lekin bu psixologiyaning ilmiy bo'lmagan metodi hisoblanadi.

Ekspert bahosi metodi. Tadqiqot jarayonida iqtidorli bolalarni va nazorat guruhidagi bolalarni baholash uchun tashqi va ichki ekspertlarni taklif qilinadi: ota-onalar, tarbiyachilar, musiqiy xodimlar, sinf raqbari, fan o'qituvchilari, keyin ularga stimulyar varaqa beriladi, unda bola o'z talantini ko'rsatishni mumkin bo'lgan 10 soha xarakteristikolari beriladi:

- intellektual,
- akademik o'zlashtirish,
- ijodiy,
- badiiy,
- artistik,
- musiqiy texnik harakatli,
- rassomlik,
- ijodiylik.

Ekspert har bir ko'rsatilgan xarakteristikalarini 5 balli tizimda baholaydi. Agar bolaga qandaydir xarakter juda mos bo'lsa 5 ball, 2 ball - buning aksi bo'lsa qo'yiladi. (ballar 5,4,3,2).

Ekspiriment metodi – o'z navbatida tabiiy va laboratoriya metodlariga ajratiladi. **Tabiiy tajriba** metodlarining ilmiy asoslarini 1910- yilda rus psixologi **A.F.Lazurskiy** tomonidan ishlab chiqilgan. U kichik maktab yoshidagi bola shaxsining shakllanishini o'rganish maqsadida ushbu metodni qo'llagan. Tabiiy metoddan ishlab chiqarish jamoalari a'zolarining, ilmiy muassasalar xodimlarining, o'qituvchilar, keksaygan kishilarning psixologik o'zgarishlari, o'zaro munosabatlari, ish qobiliyatlari, mutaxassislikka yaroqliligi muammolarini hal qilish jarayonida foydalanish nazarda tutiladi. Tabiiy sharoitda inson psixikasini o'rganishdan sinaluvchilarning o'zlari bexabar bo'lishi, ta'lim jarayonida berilayotgan bilimlar tadqiqot maqsadiga muvofiq lashtirilishi, katta yoshdagi odamlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish, kundalik mehnat doirasida amalga oshirilishi, zavod va fabrikada esa moddiy mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim.

Tabiiy eksperiment metodi sirdan kuzatish metodidan keskin farq qiladi. Sirdan kuzatish metodida biror psixik jarayon kuzatilayotgan kishi o'sha jarayon qanday yuz bersa, shu holicha tekshiraveradi, lekin bu jarayonning namoyon bo'lishiga aralashmaydi, ya'ni psixik jarayonni yuzaga keltiruvchi sharoitni o'zgartirmaydi. Tabiiy eksprement metodidan foydalananda esa tekshiruvchi o'rganilayotgan biror psixik jarayonni o'zi vujudga keltiradi, lekin uni tekshirilayotgan odam uchun tabiiy bir sharoitda va unga sezdirmasdan o'tkazadi.

Laboratoriya (klinika) eksperimenti metodining (1879-yili V.Vunt kiritgan) asosiy xususiyati shundan iboratki, bunda o'rganilishi lozim bo'lgan psixik jarayonlarning (masalan idrok, diqqat, xotira kabi) qanday sharoitda qachon yuz berishini kutib o'tirmasdan tekshiruvchi kishi (eksperimentator) sinalayotgan odamda shu jarayonlarni maxsus tarzda ishga soladi.

Iqtidorli bolalarni aniqlashda aniq ma'lumot beruvchi metod hisoblanadi. Bunda har xil aparatūra yoki vositalar yordamida bolani iqtidori aniqlanadi. Ya'ni sun'iy sharoitda sinaluvchini har tomondan aniq kuzatish va natijani aniq olish mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari, laboratoriya eksprementi sharoitida eksperimentator o'rganayotgan har bir psixik jarayonni xohlagan marta, ya'ni takror-takror yaxshilab sinab ko'rishi mumkin. Bu murakkab psixik jarayonlarni qobilyatni chuqur tabiatini o'rganishda katta qulaylik tug'diradi. Birinchidan, istalgan psixik jarayonni xohlagan paytda yuzaga keltirish vaqtini tejash imkonini bersa, ikkinchidan har bir psixik jarayonni takror-takror yuzaga keltirib, sinchiklab o'rganish bu jarayonlarning qonuniyatlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Hozirgi kunda odamdagi ayrim psixik jarayonlarning yuz berish tezligini, diqqatning barqarorligi va kengligini, xotiraning xususiyatlarini uquv hamda malakalarning qonuniyatlarini aniq va puxta tekshira oladigan ko'plab maxsus asboblardan mavjuddir. Masalan, elektron xronoskop orqali ayrim psixik (aks ettirish, ko'rish, eshitish, hid bilish, teri sezgilari kabi) jarayonlarning yuzaga kelish tezligini aniq o'lchash mumkin. **Elektron taxistoskop** orqali diqqatning xususiyatlarini belgilash mumkin, **perseptometr** orqali idrok qilish xususiyatlarini o'rganish mumkin, **audiometr** orqali eshitish xususiyatlarini o'rganish mumkin va boshqalar. Umuman, hozirgi kunda texnikaning ildam taraqqiyoti munosabati bilan laboratoriya eksperimentining imkoniyati ortib bormoqda.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, laboratoriya eksperimenti metodi bilan turli yoshdagi insonlarning psixik jarayonlari o'rganiladigan bo'lsa eksperimentni tayyorlash va o'tkazishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Psixik jarayonlarning moddiy, ya'ni nerv-fiziologik asoslarini ham laboratoriya eksperimenti yordami bilan tekshiriladi. Psixik jarayonlarning nerv fiziologik asoslarini aniqlashda akademik I.P.Pavlovning shartli reflekslar metodi juda katta ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda bu metod bolalarning o'sishini tekshirishda hamda birinchi va ikkinchi signallar tizimlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tekshirishda keng qo'llanilmoqda.

Laboratoriya eksperimenti metodi eng aniq metod sifatida psixologiya fanining taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega. Lekin laboratoriya eksperiment metodining ham ma'lum kamchiligi mavjud. Bu kamchilik shundan iboratki, laboratoriya sharoitida o'tkazilayotgan tekshirish hech vaqt ma'lum sun'iylikdan xoli bo'lmaydi. Tekshirilayotgan odamga hech narsa deyilmasa ham, bari bir laboratoriya sharoitining o'zi tekshirilayotgan odamning tabiiy psixik holatiga ta'sir qiladi. Binobarin, bu narsa o'z navbatida tekshirish natijalariga salbiy ta'sir qiladi. Ana shuni nazarda tutib laboratoriya eksperimenti yordami bilan qo'lga kiritilgan natijalarni ba'zan boshqa metodlar yordami bilan tekshirib ko'rish lozim bo'ladi. Laboratoriya eksperimenti metodi maxsus xona va turli asboblardan bog'liq bo'lganligi sababli bu metoddan ayrim sharoitlarda foydalanish imkoniyati bo'lmaydi. Shuning uchun psixologiya fanida laboratoriya eksperimenti bilan bir qatorda tabiiy eksperiment metodidan ham keng foydalaniladi.

Yordamchi metodlar:

Suhbat metodi bilan bizning tadqiqot obyektimiz bo'lgan iqtidorli o'quvchilarni aniqlash mumkin. Bunda suhbatning obyekti va subyekti tanlanadi, mavzu o'tkaziladigan vaqti aniqlanadi, yakka shaxslar, guruh va jamoa bilan o'tkazish rejalashtiriladi, o'rganilayotgan narsa bilan bog'liq savol-javob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi ma'lum bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi

o'zgarishlarni o'rganishdir. Suhbat orqali turli yoshdagi odamlarning tafakkuri, aql-zakovati, xulq-atvori, qiziqishi, bilim saviyasi, e'tiqodi, dunyoqarashi, irodasi to'g'risidagi ma'lumotlar olinadi. Suhbat chog'ida o'zaro izchil bog'langan savollar beriladi.

Suhbat metodidan to'g'ri foydalanish va undan kutiladigan natijaga erishish suhbat o'tkazish uchun puxta tayyorlanishga bog'liqdir. Suhbat metodi quyidagi shartlarga rioya qilishni talab etadi.

– O'tkazilgan suhbatning mavzusi va mazmuni sinaluvchining taraqqiyot darajasi hamda yosh xususiyatlariga mos bo'lishi kerak.

– Suhbat paytida sinaluvchilarga berilgan savollar mazmunan yaxshilab o'ylab olinishi lozim.

– Suhbat paytida berilgan savollarga «ha», «yo'q» kabi qisqa tarzda emas, balki batafsil javob olishga erishish kerak.

– Sinaluvchilar zerikib yoki toliqib qolmasliklari uchun suhbat haddan tashqari cho'zilib ketmasligi lozim.

Suhbat metodining yuqorida ta'kidlangan ijobiy jihatlari bilan birga ayrim zaif tomonlari ham mavjud. Takrorlangan so'zlar, «g'aliz» iboralar nutqning tezligi, fikrning mavhumligi, zerikarliligi, muvaffaqiyatsizlikka sabab bo'ladi. Shuningdek, savol-javobning bir xil shaklda emasligi sinaluvchida o'ziga xos ishlash uslubi oshkoralikning yetishmasligi, iymanish, uyaliq atroflicha ma'lumotlar olishni qiyinlashtiradi va shu sababli boshqa metodlarga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi.

Iqtidorli bolalarni aniqlashda faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi ko'p ommalashgandir. Bu metodni tashkiliy masalasi qolgan metodlarga qaraganda ancha osonroq.

O'quvchilarni xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida bu metod intellekt psixologiyasida keng qo'llaniladi. Bolalar chizgan rasmlar, yasagan o'yinchoqlar, modellar, yozgan she'rlarini tahlil qilish orqali ularning mantiqiy xotirasi, tafakkuri, texnik, badiiy va adabiy qobiliyati, ijodiy xayoli yuzasidan materiallarni qo'llash mumkin. Mazkur metoddan foydalanishda mahsulotni yaratgan shaxs bevosita ishtirok etmaydi. Obyekt bilan subyekt o'rtasida muloqot o'rnatish uchun shaxsning psixikasi to'g'risida sirdan ma'lum hukm, xulosa chiqariladi.

Ijodiy faoliyat mahsullarini tahlil qilish orqali bolalar, o'quvchilar, talabalar, konstruktorlar, olimlar, hunarmandlar, ishchilar psixik xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash mumkin. Lekin insondagi psixik o'zgarishlar kamol topish va ularning kechishini ifodalovchi materiallar yig'ish uchun bu metodning o'zi yetmaydi. Shuning uchun inson psixikasini o'rganish maqsadida boshqa metodlardan ham foydalanish ma'qul.

Test metodi – «Test» inglizcha so'z bo'lib sinash tekshirish demakdir. Shaxsning aqliy o'sishini, qobiliyatini, irodaviy sifatleri va boshqa psixik

xususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan qisqa standart masala, topshiriq test deb ataladi. Bu metod eng ommalashgan diagnostik usullardan biri, ayniqsa bolalarni iqtidorini aniqlashda ancha qo'l keladi. Masalan «IQ» intellekt koeffitsiyenti testini olishimiz mumkin. Bu nafaqat maktab o'quvchilariga, balki barcha yoshdagi shaxslar uchun qo'llash mumkin.

Test metodi boshqa metodlardan har qanday psixologik xususiyat yoki voqelikni sifat va miqdor jihatdan tahlil qilishga yo'nalganligi bilan farqlanadi. Shuning uchun testlarga qo'yiladigan talablar muhimdir. Testlarni standartlashtirish ularni o'tkazish va baholashga qo'yiladigan yagona normativdir. Standart:

a) metodikani o'tkazish va natijalarni baholash jarayonini umumiy me'yorlarga keltirish;

b) har bir tekshiriluvchining ko'rsatkichlari umumiy ko'rsatkichlar tizimida qanday o'rin egallashini topish uchun zarur yangi shkalani ishlab chiqish diagnostik testlar yordamida olingan natijalarni talqin etish uchun bu natijalar muayyan me'yor, ya'ni standart bilan solishtirilishi kerak. Standart bilan solishtirilgandagina tekshiriluvchining ko'rsatkichlari umumiy ko'rsatkichlar tizimida qanday o'rin egallashini aniqlash mumkin.

Shu bilan bir qatorda iqtidorni aniqlashda psixologik metodikalardan keng foydalaniladi.

Test ayniqsa, odamning qanday kasbni egallashi mumkinligi, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligini, iste'dodlilar va aqli zaiflarni aniqlashda keng qo'llaniladi. Test metodining qimmatini tajribaning ilmiylik darajasiga tekshiruvchining mahoratiga va qiziqishiga, yig'ilgan psixologik materiallarning obyektivligi va ularni ilmiy tahlil qilishga bog'liqdir.

1905-yildan fransuz psixologi **A.Bine** va uning shogirdi **A.Simon** insonning aqliy o'sishi va iste'dod darajalarini o'lchash imkoniyati borligi g'oyasini ilgari surgandan keyin psixologiyada test metodi qo'llana boshladi.

Biografiya (tarjimai hol) metodi – bunda tarjimai holni obyekt o'zi ya'ni maktab o'quvchisi berishi shart hisoblanadi. Iqtidorni aniqlashda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berish kerak:

– obyekt tomonidan berilgan matnni (tarjimai hol) lingvistik talaffuzga mosligi;

– matnda barcha qo'shimchalar alohida tanlanganligi;

– stenografiyaga moyillik darajasini aniqlash;

– abstrakt notalarini ajratish va ularning soniga e'tibor berish;

– matndagi metomodel til konstrukturasini aniqlash;

– matndagi yuzaki strukturani quyi strukturaga mos kelish masofasini aniqlash.

Inson psixikasini tadqiq qilish uchun uning hayot faoliyati, ijodiyoti to'g'risidagi og'zaki va yozma ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Bu borada kishilarning tarjimai holi, xotiralari, esdaliklari, o'zgalari ijodiga

bergan baholari, taqrizlari alohida o'rin egallaydi. Shu bilan birga o'zgaralar tomonidan to'plangan tarjimai hol haqidagi materiallar, esdaliklar, xatlar, rasmlar, tavsiflar, baholar, magnitafon ovozlari, fotolavhalar, hujjatli filmlar o'rganilayotgan shaxsni to'liqroq tasavvur etishga xizmat qiladi.

Tarjimai hol ma'lumotlari inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatishda uning suhbat va tajriba metodlari bilan o'rganib bo'lmaydigan jihatlarni ochishga yordam beradi.

So'rovnomani metod – psixologiyada keng qo'llaniladigan metodlardan biridir. Uning yordamida turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlari narsa va hodisalarga munosabatlari o'rganiladi.

Iqtidorli o'quvchilarni aniqlashda bu metodni o'rni katta. Sababi bu metod kam vaqt olishi va barcha yoshga mos kelishi, shuningdek, qo'llanilishi murakkablikni talab etmaydi.

So'rovnomani odatda 3 xil tuzilishda bo'ladi. Ularning

- 1) anglangan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan tuziladi.
- 2) har bir savolning bir nechtadan tayyor javoblari beriladi.
- 3) sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi.

So'rovnomadan turli yoshdagi odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari va qobiliyatlarini, o'ziga, tengdoshlariga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlashda foydalaniladi.

Iqtidorli bolalarning intellektual va ijodiy taraqqiyotini diagnostika qilish uchun ota-onalarga maxsus anketalar ishlab chiqilgan. Anketa savollarini tuzishda bolaning individual qobiliyatlarini rivojlanishi haqida turli-tuman ma'lumotlarni yig'ishga asosiy e'tibor qaratiladi. Anketa o'zida bolaning jismoniy rivojlanishi, bilish faoliyati rivojlanishi, bolaning qiziqishlari, qobiliyatlari, bolada ijodiy faoliyat va qiziquvchanlikning namoyon bo'lishi, muayyan bilim, ko'nikmalar, maxsus qobiliyatlarga ega ekanligi haqidagi savollarni mujassamlashtiradi. Anketa savollarida bola shaxsiga oid xususiyatlar borasida ham so'z yuritiladi. Muloqotchanlik, liderlikka intilish, maqsadga intilishda qat'iylik. Anglangan ehtiyojlarni o'rganish uchun bolaga V.S.Yurkevich tomonidan tuzilgan 2 ta anketa beriladi ushbu anketa 5 ta savoldan iborat va anglangan ehtiyojlarni yaqqol namoyon bo'luvchi, kuchsiz va juda zaif namoyon bo'luvchi kabi darajalarda ko'rinadi.

Sotsiometrik metod. Bu metod kichik guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llaniladi. Bunga amerikalik sotsiolog Dj.Moreno asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruh a'zolarining bir-birlari bilan munosabatini aniqlash uchun uning qaysi faoliyatda kim bilan birga qatnashishi so'raladi. Olingan ma'lumotlar matrisa, grafik, sxema, jadval shaklida ifodalanadi. Ulardagi miqdor ko'rsatkichlar guruhdagi kishilarning

shaxslararo munosabatlari to'g'risida tasavvur hosil qiladi. Bu ma'lumotlar guruhiy munosabatlarning tashqi ko'rinishini aks ettiradi.

Shuning uchun hozir Ya.L.Kolominskiy va I.P.Volkov tomonidan sotsiometriyaning yosh davri psixologiyasiga moslab o'zgartirilgan yangi turlari ishlab chiqarilgan. Bular shaxsning bir-birini tanlash motivlarini keng ifodalash imkonini beradi. Ayniqsa, sotsiometriyaning Ya.M.Kolominskiy ishlab chiqqan o'zgartirilgan turi bolalar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar haqida to'laroq axborot beradi.

«Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash» bo'yicha ilmiy jamoatchilik tomonidan keng e'tirof etilgan tavsiyalarga quyidagilar kiradi:

– dars jarayonida kuzatish va sinov (test, savol-javob, suhbat, masala yechish) orqali iqtidorli o'quvchilarni ajratib olish;

– iqtidorli o'quvchilarning qiziqishi va bilim saviyasiga qarab mavzu tanlash;

– har bir o'quvchiga alohida yo'nalishi bo'yicha dastur tayyorlash;

– o'quvchi bilan individual ishlashni tashkil etish. O'quvchi bilimini o'qituvchining bilim saviyasiga yaqinlashtirish;

– o'quvchining tasavvur qilish qobiliyatini o'stirish, ularga qomusiy kitoblar va ilmiy -ommabop kitoblarni o'qishni tashkil etish, ularning fikrlash doirasini kengaytirish;

– ilmiy mavzu o'qituvchi tomonidan 20dan ortiq ro'yxat bilan beriladi. O'quvchi o'zi xohlagan mavzusini tanlab olishiga imkon berish;

– tanlagan mavzusining maqsadi va mohiyatini o'quvchining anglay olishi, yashash sharoitiga qarab ishlab chiqarish va hayot bilan uzviy bog'lay olishga erishish;

– iqtidorli o'quvchilarni olimpiada va ilmiy konferensiyalarda ishtirok etishini ta'minlash;

– o'quvchi ilmiy ishining maqsadi, yangiligi va ilmiyligi, davlatga tushadigan foydasini aniqlash;

– ish jarayonida iqtidorli o'quvchi o'zining mavzu, ma'ruza va boshqa ishlaridagi muammoli vaziyatlarni, masala va test sinovlarini mumkin qadar to'g'ri va mustaqil yechishga, o'quvchining anglash qobiliyatini o'stirishga erishish;

– o'quvchilar o'zlarining fikr va mulohazasini formula, qonun yoki qoidalarga asoslangan holda isbotlay olsin, ya'ni ularning og'zaki nutqiga e'tibor berish;

– o'quvchilarni turli tadbirlar o'tkazish va unda ishtirok etishga undash, o'z ustida qo'shimcha ishlashga erishish;

– amaliy ishlarni bajarishda ko'proq samara olishiga va amaliy ish natijasi haqiqatga yaqin chiqishiga erishish;

– o'quvchilarni bahs-munozara va diskussiyaga tortish, savolga qanday javob tayyorlashini kuzatish;

– iqtidorli o‘quvchilarni to‘garak ishlariga jalb qilish. Ular nazariy ishdan tashqari harakatlanuvchi maketlar va modellarni yasash, ularning ish prinsiplarini o‘rgana olishiga erishish;

– o‘zining mustaqil fikriga va o‘z fikrini tushuntirib bera oladigan va himoya qila oladigan bo‘lishi kerak.

Iqtidorli o‘quvchilarning tarbiyasi bilan bog‘liq vaziyatlarni yaxshilashda quyidagi jihatlariga e‘tibor berish talab etiladi:

- 1) oiladagi o‘zaro munosabatga;
- 2) bolaning o‘zini qanday tutishiga;
- 3) «Men» konsepsiyasining tuzilishiga.

Iqtidorli bolalarning ota-onalariga uchun quyidagi tavsiyalarni taqdim etish lozim:

- ✓ Bolani tarbiyalash uchun shaxsiy qadriyatlar tizimini aniqlang.
- ✓ Haqqoniy bo‘ling. Har qanday bola yolg‘onni his qila biladi. Bu xususiyat iqtidorli bolalarda yanada yuqori bo‘ladi.
- ✓ Bolaning taraqqiyot darajasini baholang.
- ✓ Uzoq suhbatlashish va tushuntirishdan qoching.
- ✓ Boladagi o‘zgarishlarni vaqtida ilg‘ab oling.
- ✓ Bolaning individualligini hurmatlang. Uni o‘zingizning shaxsiy qiziqishlaringizga bo‘ysundirib qo‘ymang.

Ota-onalar iqtidorli bolalarda quyidagi shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga majburdirlar:

- ✓ O‘z-o‘zini baholashni anglashiga zamin bo‘luvchi ishonchni.
- ✓ O‘zini va atrofdagilarni tushunishni.
- ✓ Intellektual qiziqish va izlanuvchanlik tavakkaliga tayyor turishni.
- ✓ Mehribonlik, halollik, do‘stona munosabat, hamdardlik, chidam va shijoatni.

- ✓ O‘z xatti -harakatiga javobgarlik hissiga ega bo‘lishni.
- ✓ Turli yoshdagi kishilar bilan xushmuomalada bo‘lish, umumiy til topishga moyillikni.

Iqtidorli bolalarni aniqlashda quyidagilarga e‘tibor berish lozim:

✓ Iqtidorli bolalarni baholashni (qobiliyatlar qay darajada ekanligi, ayniqsa, qaysi qobiliyatlar yuqoriligini) kompleks ravishda amalga oshirish lozim.

✓ Iqtidorli bolalarni aniqlash uzoq davom etadigan jarayondir, shunda olingan natijalar obyektiv bo‘ladi.

✓ Iqtidorni aniqlashda psixotrening mashg‘ulotlari (bolani tekshirishdan oldin undagi stress hoatini yo‘qotish, bolani ruhiy tayyorlash) samarali natija beradi.

✓ Iqtidorli bolalarning imkoniyat darajasini aniqlashda sun‘iylik bilan cheklanib qolmay, sun‘iydan olingan natijani real hayotda qo‘llash kerak.

✓ Iqtidorli bolalarni aniqlashda turli mutaxassislar (psixolog, pedagog, ota -ona, tengdoshlari)ning bergan bahosi alohida ahamiyatga ega.

✓ Boladagi iqtidorni aniqlashda bolaning o'ziga bergan bahosi ham alohida ahamiyatga ega.

2.2. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda diagnostik metodlardan foydalanish yo'llari

Iqtidorli o'quvchilarni diagnostika qilishda eng optimal deb topilgan metodlar bu test, so'rovnoma, anketa, ekspert bahosi va kuzatish metodlaridir. Quyida keltirib o'tiladigan metodikalar, o'quvchilarda qiziqishlari, layoqati, qobiliyatlari asosida hamda o'qishga bo'lgan motivi yordamida iqtidorini aniqlash mumkin.

O'quv motivini baholash metodikasi.

Mazkur metodika 12-13 yoshdagi bolalarning o'quv motivatsiyasi, maktabga bo'lgan munosabati, o'qish bilan bog'liq vaziyatga nisbatan emotsional reaksiyasini aniqlashga qaratilgan (metodika N.G.Luskanova tomonidan taklif etilgan).

Anketa savollari.

1. Senga maktab yoqadimi yoki unchalik yoqmaydimi?
– unchalik yoqmaydi.
– yoqadi
– hecham yoqmaydi.
2. Ertalab uyg'onib, doim xursandchilik bilan maktabga kelasanmi yoki ko'pincha uyda qolishni istaysanmi?
– ko'pincha uyda qolishni istayman
– ba'zida borishni, ba'zida qolishni istayman
– xursandchilik bilan maktabga boraman
3. Agar o'qituvchi ertaga xohlaganlar kelib, xohlaganlar kelmasligi mumkin desa, sen maktabga borarmiding?
– bilmadim
– uyda qolardim
– maktabga borardim
4. Biror bir dars bo'lmasligi senga yoqadimi?
– yoqmaydi
– ba'zida yoqadi, ba'zida yoqmaydi
– yoqadi
5. Uy vazifalaring yo'q bo'lishini xohlarmiding?
– xohlardim
– xohlamasdim
– bilmadim

6. Maktabda faqat tanaffus bo'lishini xohlarmiding?

- bilmadim
- xohlamasdim
- xohlardim

7. Sen ota - onangga maktab haqida ko'p gapirib berasanmi?

- ko'p gapirib beraman
- kam gapirib beraman
- umuman gapirib bermayman.

8. O'qituvching o'rniga boshqa mehribonroq o'qituvchi kelishini xohlarmiding?

- bilmadim
- xohlardim
- xohlamasdim

9. Sinfda o'rtoqlaring ko'pmi?

- kam
- ko'p
- umuman yo'q

10. Senga sinfdoshlaring yoqadimi?

- yoqadi
- unchalik yoqmaydi
- yoqmaydi.

Eslatma: mazkur anketa individual tashxis davomida ham, guruhiy tashxis maqsadida ham qo'llanilishi mumkin.

Natijalarni baholash:

1. 25-30 ball. O'quv motivatsiyasi yuqori. Bunday bolalar o'zining bilish motivi kuchli ekanligi, barcha topshiriqlarni yaxshi bajarishga intilish bilan ajralib turadi.

2. 20-24 ball. O'quv motivatsiyasi o'rtacha. Bunday o'quvchilar guruhi o'quv faoliyatini ancha muvaffaqiyatli amalga oshirilgan bolalardan tashkil topadi.

3. 15-19 ball. Maktabga munosabat ijobiy, ammo bolani ko'proq o'qish bilan bog'liq bo'lmagan tomonlar qiziqtiradi. Bunday o'quvchilar maktabda o'zlarini yaxshi his etadilar, biroq maktabga asosan o'rtoqlar, o'qituvchilar bilan suhbatlashishi, chiroyli o'quv qurollariga ega bo'lish uchun boradilar.

4. 10-14 ball. O'quv motivatsiyasi past. Bunday bolalar maktabga borishni xohlamaydilar, darslarda bekorchi narsalarda bilan shug'ullanib, o'ynab o'tiradilar.

5. 10 balldan past. Maktabga nisbatan salbiy munosabat, dezadaptatsiya moslashmaganlik mavjud. Bunday o'quvchilar o'quv faoliyatini bajarishga qiynaladilar, tengdoshlar va o'qituvchilar bilan bo'lgan munosabatda

muammolarga duch keladilar, ularda ayrim hollarda nerv - psixik salomatlikning suzilishi kuzatiladi.

Eslatma: Anketani ikki usulda qo'llash mumkin.

1 - usul. Savollar eksperimentator tomonidan o'qib eshittiriladi va javob variantlari taqdim etiladi, bolalar o'zi tanlangan javobni yozib qo'yadi.

2 - usul. Savollar har bir bolaga alohida - alohida yozma ko'rinishda tarqatiladi, bolalar tegishli javoblarni belgilaydilar.

Metodika haqida qo'shimcha ma'lumot: so'rovnomadagi savollar 200 nafar 6 - 8 yoshdagi o'quvchi bilan o'tkazilgan so'rov asosida bolalarning maktabga, o'qish jarayonida bo'lgan munosabatini to'liqroq aks ettiruvchi savollar sifatida ajratib olingan.

Savollar	1-javob uchun	2-javob uchun	3-javob uchun
1	1	3	0
2	0	1	3
3	1	0	3
4	3	1	0
5	0	3	1
6	1	3	0
7	3	1	0
8	1	0	3
9	1	3	0
10	3	1	0

Ushbu metodikani qo'llash uchun albatta alohida xona talab etiladi, sababi bolalarni noodatiy muhit tashqi tomondan bo'layotgan ta'sirdan saqlaydi. Testni his qilishlari yaxshilashadi. O'qituvchi metodikani sharti bilab sinaluvchilarni tanishtirishi shart hisoblanadi.

Eksperimentator metodikani javoblarni yechilishiga alohida e'tibor berishi shart, agar ko'p vaqt sarflanayaptimi bilingki, bu tadqiqotni obyektivligi yo'qolmoqda. Shuning uchun eksperimentator sinaluvchilarga, testni javobini tez belgilashlarini alohida takidlab o'tishi zarur.

Natijalarni qayta ishlash uchun quyidagi kalitdan foydalaniladi.

O'quv motivatsiyasining yo'nalganligini tashxis qilish metodikasi.

Metodika haqida ma'lumot. Test - so'rovnoma shaklidagi mazkur metodika muayyan fanlarni o'rganishga qaratilgan o'quv faoliyati motivatsiyasining yo'nalganligini va ta'lim oluvchi shaxs ichki motivatsiyasining darajasini o'lchash uchun xizmat qiladi. Ushbu metodika ta'lim oluvchilarning barcha guruhlari bilan (12 yoshdan boshlab) - o'z-o'zini tahlil qilishga

va o'zi haqida xulosa chiqarishga qodir bo'lgan har qaysi ta'lim oluvchi inson bilan o'tkazilishi mumkin.

Metodika T.D. Dubovitskaya tomonidan tuzilgan bo'lib, uning stimullar materialini 20 ta ta'kididan iborat. Mazkur ta'kidlar bo'yicha tekshiriluvchilar ma'lum fanlarga nisbatan o'z munosabatini bildirib, maxsus javob varaqasi (1 - jadval) ning muayyan ustun va startlarida tegishli belgilarni qo'yadilar: «to'g'ri» - (+ +); «to'g'ri, shekilli» - (+); «noto'g'ri, shekilli» - (-); «noto'g'ri, shekilli» - (- -); «noto'g'ri» - (- -).

Javob varaqasi

	O'rganilyotgan fanlar			
	Matematika	Psixologiya
1				
2				
...				
19				
20				
Qanday fanlarni tanlashi eksperimentator ixtiyorida				

Ta'kidlar.

1. Ushbu fanni o'rganish orqali o'zim uchun ko'p kerakli narsalarni o'rganib olayman, o'z qobiliyatlarimni namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lib turibman.

2. Bu fan menga qiziq va men shu fan yuzasidan imkon qadar ko'proq narsa bo'lishni xohlayman.

3. Mazkur fanni o'rganishimizda menga darsda beriladigan bilimlarning o'zi kifoyadir.

4. Ushbu fan bo'yicha beriladigan topshiriqlar menga qiziq emas, men ularni o'qituvchi talab qilgani uchunгина bajaraman.

5. Bu fanni o'rganishda oldimda paydo bo'luvchi qiyinchiliklar fanga bo'lgan qiziqishimni yanada orttirib yuboradi.

6. Mazkur fanni o'rganishda darslik va tavsiya etilgan adabiyotlardan tashqari mustaqil ravishda qo'shimcha adabiyotlar bilan tanishib boraman.

7. Ushbu fanga tegishli murakkab nazariy masalalarni o'rganmasa ham bo'ladi, deb hisoblayman.

8. Bu fanni o'rganishda biror ishning uddasidan chiqolmasa, men muammoning tagiga yetishga harakat qilaman.

9. Mazkur fandani dars o'tilganda negadir umuman o'qishni istamay qolaman.

10. Ushbu fan yuzasidan beriladigan topshiriqlar ustida faqat o'qituvchi nazorat qilib turgandagina ishlayman.

11. Bu fanga taalluqli ma'lumotlarni bo'sh vaqtda (tanaffusda, uyda) sinfdoshlarim (do'stlarim) bilan muhokama qilish menga qiziq tuyuladi.

12. Mazkur fandan topshirilgan vazifalarni mustaqil bajarishga harakat qilaman, kimdirning maslahat va yordam berib turishini yoqtirmayman.

13. Ushbu fanga tegishli topshiriqlarni boshqalardan kuchirib olishga harakat qilaman yoki kimdandir vazifani o'rnimga qilib berishni iltimos qilaman.

14. Bu fan bo'yicha beriladigan barcha bilimlar kerak deb hisoblayman, shuning uchun bu fandan imkoni boricha ko'proq narsa bilish kerak degan fikrdaman.

15. Mazkur fan bo'yicha qo'yiladigan baho menga bu fandan beriladigan bilimdan muhimroq.

16. Ushbu fandan o'tkaziladigan darsga yaxshi tayyorgarlik ko'rmagan bo'lsam, bundan unchalik qattiq xafa bo'lmayman.

17. Bu fan bilan shug'ullanish uchun men bo'sh vaqtimning ham katta qismini unga sarflayman.

18. Mazkur fanni qiyinchilik bilan o'zlashtiraman, shu fan bo'yicha beriladigan topshiriqlarni o'z - o'zimni majburlab bajaraman.

19. Ushbu fan bo'yicha o'tkaziladigan darsda kasallik yoki boshqa sabab bilan qatnasha olmasam, xafa bo'lishim mumkin.

20. Agar imkoniyatim bo'lganda, men bu fanni dars jadvali (o'quv rejasi) dan olib tashlagan bo'lardim.

Natijalarni qayta ishlash va baholash.

Natijalar quyidagi kalit yordamida qayta ishlanadi:

«to'g'ri», «to'g'ri, shekilli» - 1, 2, 5, 6, 8, 11, 12, 14, 17, 19.

«noto'g'ri», «noto'g'ri shekilli» - 3, 4, 7, 9, 10, 13, 15, 16, 18, 20.

Kalitga mos kelgan har bir holat uchun 1 balldan qo'yiladi. Barcha ballar yig'indisi qanchalik katta bo'lsa, tegishli fanni o'rganishda ichki motivatsiya shunchalik baland bo'ladi. Ballar yig'indisi qanchalik kichik bo'lsa, ichki motivatsiya darajasi shunchalik sust bo'ladi. Umumiy natijalarni baholashda quyida keltirilgan me'yoriy ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin:

0 - 10 ball - tashqi motivatsiya ustun;

11 - 20 ball - ichki motivatsiya ustun.

Ichki motivatsiya darajasini baholash uchun quyidagi me'yoriy ko'rsatkichlarga tayanish mumkin:

0 - 5 ball - ichki motivatsiya past darajada;

6 - 14 ball - ichki motivatsiya o'rta darajada;

15 - 20 ball - ichki motivatsiya yuqori darajada.

Eslatma: ilmiy tadqiqot o'tkazish maqsadida birlamchi («xomaki») natijalardan foydalanish tavsiya etiladi.

T.Elersning muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi testi

Ushbu metodikani o'tkazishdan maqsad o'quvchilarni ta'lim sohasida umuman olganda hayotni barcha jabbalarida kasb tanlovida intiluvchanligini aniqlash mumkin.

Intiluvchan o'quvchilardagi bir xususiyat borki, ularning bu xislatlari qobilyatli bolalardan ham o'z ishlarini qoyilmaqom qilib bajarishlari mumkin. Ya'ni bu bolalarda harakat degan katta kuch motivi bor shu sababli qobilyatlilardan ko'ra ko'proq harakatchan o'quvchilar ko'proq natijaga erishadilar

Yo'riqnoma: Sizga 41 ta savol taqdim etilgan, bularning har qaysisiga ha yoki yo'q deb javob bering.

1. Ikkita variantdan bittasini tanlash kerak bo'lganda, noma'lum vaqtga qoldirmasdan, tezda bittasini tanlagan ma'qul.

2. Berilgan topshiriqni 100% bajara olmasligimni bilgach, tezda asabiylasha boshlayman.

3. Menga ish jarayonida hammasini tavakkal qilayotganimdek bo'lib ko'rinadi.

4. Agar muammoli vaziyat paydo bo'lsa, men ko'p hollarda oxirgilar-dan bo'lib biror qarorga kelaman.

5. Ikki kun ketma-ket ish bo'lmay qolsa men nima qilishni bilmay qolaman.

6. Ba'zi kunlarda mening muvaffaqiyatlarim o'rtacha ko'rsatkichdan past bo'ladi.

7. Boshqalarga nisbatan ko'proq o'zimga talabchanman.

8. Men boshqalarga qaraganda ko'proq xayrixohman.

9. Qiyin vazifadan voz kechganimdan keyin o'zimni qattiq koyiy boshlay-man, chunki bu ishda men muvaffaqiyatga erishishim mumkinligini bilardim.

10. Ish jarayonida qisqa-qisqa dam olishga ehtiyoj sezaman.

11. Tirishqoqlik bu mening asosiy fazilatim emas.

12. Ishdagi muvaffaqiyatim har doim ham bir xilda emas.

13. Hozir shug'ullanayotgan ishimga nisbatan meni ko'proq boshqa ishlar jalb qiladi.

14. Menga maqtovga nisbatan tanbeh kuchli ta'sir qiladi.

15. Meni o'rtoqlarim uddaburon deb hisoblashlarini bilaman.

16. Har qanday to'siqlar qarorimni yanada qat'iy lashtiradi.

17. Menda shuhratparastlikka moyillik tez paydo bo'ladi.

18. Qiziqib ishlamasam bu yaqqol ko'rinib turadi.

19. Ish jarayonida boshqalar yordamiga ehtiyoj sezmayman.

20. Ba'zan hozir qilishim kerak bo'lgan ishni paysalga solaman.

21. Faqat o'ziga ishonish kerak.

22. Hayotda puldan ham muhimroq narsalar kam.
23. Muhim vazifani bajarish lozim bo'lganda, boshqa narsalarni o'ylamayman.
24. Ko'pchilikka nisbatan menda shuhratparastlikka moyillik kam.
25. Ta'til oxirida odatda men ishga chiqishimni bilib suyunaman.
26. Ishga ixlos bilan kirishsam, uni boshqalarga nisbatan yuqori mahorat bilan yaxshiroq bajaraman.
27. Men astoydil jon kuydirib ishlaydigan odamlar bilan tez va oson til topishaman.
28. Qiladigan ishim bo'lmasa, o'zimni qo'yarga joy topa olmayman.
29. Men boshqa odamlarga nisbatan ko'proq mas'uliyatli ishlarni bajarishimga to'g'ri keladi.
30. Qaror chiqarish mas'uliyati menga yuklatilsa, uni yaxshiroq bajarishga intilaman.
31. Do'stlarim meni ba'zan dangasa deb hisoblashadi.
32. Mening muvaffaqiyatlarim ma'lum darajada hamkasblaringa bog'liq.
33. Rahbarning ra'yini qaytarishdan foyda yo'q.
34. Ba'zan qanday ish bajarish kerakligini bilmaysan.
35. Agar ishim yurishmasa, betoqat bo'lib ketaman.
36. Men odatda erishgan yutuqlaringa kam e'tibor beraman.
37. Boshqalar bilan ishlayotganimda, boshqalarning ishiga qaraganda, mening ishim unumli bo'ladi.
38. Boshlagan ko'p ishlarni oxiriga yetkaza olmayman.
39. Ish bilan band bo'lmagan odamlarga havasim keladi.
40. Men hokimiyatga intilgan, amalparastlarga havas qilmayman.
41. Agar to'g'ri yo'lda ekanligimga ishonch hosil qilsam, o'zimning haq ekanligimni isbotlash uchun hech narsadan qaytmayman.

K a l i t:

Siz quyidagi savollarga «ha» deb javob bergan bo'lsangiz, 1 balldan olasiz: 2, 3, 4, 5, 7, 8, 9, 10, 14, 15, 16, 17, 21, 22, 25, 26, 27, 28, 29, 30, 32, 37, 41. Yana 1 balldan quyidagi savollarga «Yo'q» deb javob bergan bo'lsangiz olasiz: 6, 13, 18, 20, 24, 31, 36, 38, 39. To'plagan ballarni hisoblab chiqing. Natija:

- 1 balldan 10 ballgacha – muvaffaqiyatga juda past motivatsiya;
- 11 balldan 16 ballgacha – o'rta darajadagi motivatsiya;
- 17 balldan 20 ballgacha – anchagina yuqori motivatsiya;
- 21 balldan yuqori – muvaffaqiyatga nisbatan juda yuqori motivatsiya.

Qobiliyatni aniqlash testi.

Ushbu qobiliyatni aniqlash metodikasi Ayzenk test so'rovnomasi asosida tuzilgan.

Bu metodikani qayerda qo'llash mumkin?

Birinchidan, ular akademik litsey yoki kasb-hunar kollejiga o'qish uchun kelgan talabalarga o'z shaxsiy yo'nalishini to'g'ri belgilashlariga yordam berishdan qo'l keladi.

Ikkinchidan, ularni o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida qo'llanilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilar qobiliyatini, qiziqishlarini aniqlab, undan o'z darslarida foydalanishi mumkin.

Testni to'g'ri qo'llash uchun quyidagi shartlarga qat'iy amal qilinadi:

✓ Ajratilgan vaqt birligiga (80 ta savol uchun 40 daqiqaga) qat'iy rioya qilish.

✓ Sinaluvchining savol mazmunini to'g'ri idrok etishga va tushunilishiga erishish.

✓ Javoblar sinaluvchining mustaqil fikriga asoslanganligiga erishish.

✓ Savollarga berilgan javoblarni ishlab chiqish (100 ballik tizim asosida).

Sinaluvchi savollarni diqqat bilan o'qib chiqadi. Qaysi savol o'zi haqida ketayotganiga ishonch hosil qilsa, shu savolga belgi qo'yadi, qolgan savollarga hech qanday belgi qo'ymaydi. Sinaluvchi savollarga shoshilmadan ochiq-oydin va to'g'ri javob berishi lozim. Belgilangan savollarning kam yoki ko'pligi muhim emas. Sinaluvchida «qancha ko'p savollarni belgilasam, shuncha ijobiy javob olaman» degan fikr tug'ilmasligi kerak.

Savollar.

1. O'ylayotganlaringizni yaxshi bayon etib bera olasizmi?
2. Tajriba va sinovlar o'tkazishni yaxshi ko'rasizmi?
3. Karta yoki sxema yordamida istalgan manzilgohni qiynalmasdan topa olasizmi?
4. O'zingizga tanish kuy ostida qo'shiq kuyalay olasizmi?
5. Arg'imchoqda uchishni yoqtirasizmi?
6. Uyda yolg'iz o'tirishdan ko'ra do'stlaringiz bilan suhbatlashish afzalmi?
7. Hayvonlarga ozor bermay, yaxshi munosabatda bo'lasizmi?
8. Yolg'izlikni xayol surib yurishni yoqtirasizmi?
9. Siz adabiyotga qiziqasizmi?
10. Suratga tushirishni yoqtirasizmi?
11. Qiladigan ishlaringizni oldindan yon daftaringizga yozib qo'yasizmi?
12. O'zingiz yoqtirgan qo'shiqlarni tez-tez xirgoyi qilib yurasizmi?
13. O'zingizni kuchli va kuchsiz tomonlaringizni yaxshi bilasizmi?
14. Boshqalarning maslahatiga quloq tutmay, mustaqil qaror qabul qila olasizmi?
15. Ko'pgina masalalarda boshqalarga maslahat bera olasizmi?
16. Psixologiya bilan qiziqasizmi?
17. Hazil mutoyibani yoqtirasizmi?
18. Rang-barang bezatilgan kitoblarni yaxshi ko'rasizmi?

19. Odamlarning xatti-harakatlarini kuzatib yurasizmi?
20. Har xil imo-ishoralalar va harakatlarni yaxshi eslab qolasizmi?
21. Sportga qiziqasizmi?
22. Qiynalmasdan bir guruh odamlarni boshqara olasizmi?
23. Dunyoviy muammolarga masalan ekologiyaga qiziqasizmi?
24. Sayohatga baliq oviga borishni yoqtirasizmi?
25. Har xil so'z o'yinlarini va topishmoqlar topishni yoqtirasizmi?
26. Narsalar bilan raqamlar orasidagi bog'lanishni aniqlay olasizmi?
27. Yosh bolalar bilan o'yin o'ynashni yoqtirasizmi?
28. Yugurishdan ko'ra futbol, voleybol, basketbol o'ynash ma'qulmi?
29. Gullarni nomini yoddan bilasizmi?
30. Toqqa chiqishni yoqtirasizmi?
31. Tez-tez musiqa eshitib turasizmi?
32. Narsalarni buzib boshqatdan terishni yaxshi ko'rasizmi?
33. Radio, televizordan eshitgan ma'lumotlarni yaxshi eslab qolasizmi?
34. O'z fikringizni bayon qilganda rasm va sxemalardan foydalanasizmi?
35. Hisob-kitob ishlarini yaxshi olib borasizmi?
36. O'yinga tushishni yaxshi ko'rasizmi?
37. Tez-tez barmoqlaringiz yordamida musiqa chalib turasizmi?
38. Eng yaqin do'stlaringiz bormi?
39. Hayotingiz haqida o'ylab turasizmi?
40. O'zingizni fermer sifatida tasavvur qila olasizmi?
41. Shaxsiy tashvishlar sizni ko'proq qiziqtiradimi?
42. Biror narsani hal etishda do'stlaringiz bilan maslahatlashasizmi?
43. Shaxmat o'ynashni yoqtirasizmi?
44. Narsalarning kelajakda qanday bo'lishini tasavvur qila olasizmi,?
45. Musiqa asbobida kuy ijro eta olasizmi?
46. Narsa haqida to'la tasavvurga ega bo'lishingiz uchun uni ushlab ko'rishingiz shartmi?
47. Bahslashganda o'z fikringizni qat'iyat bilan himoya qilasizmi?
48. Yo'lda biror kuyni xushtak orqali chalib yurasizmi?
49. Ekologiya hozirgi kunning eng asosiy muammosimi?
50. Biror jamoa guruh yoki qo'mita tarkibida bo'lishni xohlaysizmi?
51. Boshqalar bilmaydigan qiziqish ermagingiz bormi?
52. Narsalarning mohiyatini baholash uchun ularni turli guruhlarga ajratasizmi?
53. Siz rasmlar tomosha qilishni yoqtirasizmi?
54. So'zlashayotganda imo-ishoralarni ko'p ishlatasizmi?
55. Ko'zingiz tushgan hamma yozuvlarni hatto buyumlarning etiketkalarini ham o'qiysizmi?

56. Mantiqiy o'yinlarni yaxshi ko'rasizmi?
57. Tushuntirganda misollar keltirasizmi?
58. Odamning hamma a'zolari qayerda joylashganini yaxshi bilasizmi?
59. Kelishmovchilik va janjallarni hal qila olasizmi?
60. Doim biror narsani o'rganishni o'ylab yurasizmi?
61. Bir marta eshitgan kuyingizni eslab qolasizmi?
62. Bilimlarni tajriba va sinov orqali o'zlashtirasizmi?
63. So'zlashganda kitoblarni o'qigan obrazlardan foydalanasizmi?
64. Algebradan ko'ra geometriya sizga ko'proq yoqadimi?
65. Kompyuter bilan ishlashni yoqtirasizmi?
66. Mashhur aktyorlarning gaplarini o'zlariga o'xshatib aytishni, ya'ni taqlid qilishni yoqtirasizmi?
67. Hayotingizni qo'shiqsiz tasavvur qila olasizmi?
68. To'ylarda qatnashishni yoqtirasizmi?
69. Planetalarning nomlarini bilasizmi?
70. Kundalik yuritasizmi?
71. Uy hayvonlariga ovqat berishni yoqtirasizmi?
72. Hayotingizda biror narsaga erishish uchun hamma narsaga tay-yormisiz?
73. O'simliklarga suv qo'yishni yoqtirasizmi?
74. Tez-tez konsertlarga borib turasizmi?
75. Yo'lda o'z shaxsiy muammolaringiz haqida o'ylab yurasizmi?
76. Matematikani yaxshi ko'rasizmi?
77. Dars paytida daftaringizga ba'zi narsalarning rasmini chizib o'tirasizmi?
78. Juda ko'p so'zlarning ma'nosini bilasizmi?
79. Ovoz chiqarib fikrlashni yoqtirasizmi?
80. Odamlar qiynalganda sizdan maslahat so'rab turishadimi?

Endi bu savollarga javoblarni baholash ustida to'xtalamiz. Sinaluvchi o'zi belgilagan savol nomerlarni quyidagi jadvalda doira ichiga olib chiqadi.

Qaysi ustunda 8-10 doiralar bo'lsa sinaluvchida o'sha qobiliyat ustun bo'ladi. Qaysi qobiliyatning ustunligiga qarab o'quvchining nimaga qiziqishi haqida so'z yuritish mumkin.

A -lingvinistik qobiliyat. Bunday qobiliyatli kishilarda o'qishga she'riyatga bahs munozaraga hazilhajv va hikoyalarga qiziqish kuchli bo'ladi.

B - matematik qobiliyat. Bu qobiliyati ustun bo'lgan kishilar abstrakt belgilar, formulalar, raqamlar bilan ishlashni yoqtirishadi.

C- ko'rish qobiliyati. Bu qobiliyatga ega kishilarda tasviriy san'atga haykaltaroshlik va chizmachilikka qiziqish katta bo'ladi.

D- kinetik qobiliyat. Bu qobiliyat egalari raqs, rol ijro etish, jismoniy mashqlar, sport o'yinlari va dramaga qiziqadilar.

E - tabiatsevarlik qobiliyati. Bu qobiliyat egalari sayru-sayohatga, ekskursiyalarga ko'proq qiziqadi.

F- musiqiy qobiliyat. Bu qobiliyat egalari qo'shiq aytishni, musiqa tinglashni, jo'r bo'lishni yaxshi ko'radilar.

G- suhbatdoshlik qobiliyati. Bu qobiliyat sohiblari hamdard, hamkor, xushmuomala bo'lishni, birgalikda turli loyihalar yaratishni xush ko'rishadi.

H - fikrlash qobiliyati. Bu qobiliyat egalari doim fikrni bir joyga yig'ib to'play oladi, yaxshi va chuqur fikrlaydi, xayol surib yurishni yaxshi ko'rishadi.

Qiziqishlar xaritasi.

O'quvchi yoshlarni kasbga tayyorlashda ustuvor kasbiy qiziqishlarni o'rgatish ularni layoqat yo'nalishlarini moyiliklarini aniqlashdagi muhim qadam bo'lib hisoblanadi.

Zero, ilk o'sprinlik davridayoq o'quvchilar muayan turdagi faoliyatga qiziqish boshlaydilar. Bunday faoliyatlar bilan shug'ulanishda qoniqish hosil qiladilar va bu jarayonda o'quvchilarning dunyo qarashlari, kasbiy yo'nalganliklari shakillanadi.

Yuqori sinif o'quvchilarining qiziqish yo'nalishlarini aniqlashga mo'ljallangan bir qator testlar mavjud. Shulardan biri A.E. Golomshtokning 1963-yilda chop etgan 78 savolli «Qiziqishlar xaritasi» metodikasi hisoblanadi (Golomshtok A.E. 1963). Bu test keyinchalik Leningrad psixonervologiya institutida va boshqa mualliflar tomonidan bir necha marta qayta ishlandi. Jumladan bu metodikaning 144-savolli varianti ham (Golomshtok A.E. 1991), 174-savolli varianti ham ilk bor o'zbek milliy muhitiga moslashtirib chob etildi.

Metodikani qo'llanilishi.

Metodika individual, ya'ni yakka holda va guruhiiy tadqiqotlarda ishlatish mumkin. Guruhiiy tadqiqotlarda tajriba olib boriladigan sinfga kirgach, psixolog har bir bolaga dastlab javob varaqalarini tarqatib chiqadi va unga nimalar yozishini tushuntiradi.

Javob varaqalarining shaxsiy ma'lumotlar qismini to'ldirgach, davomida 6 ustunda nomerlangan 74 katakcha borligi va ularni yuqoridan pastga qarab, tartib raqamiga diqqat qilgan holda to'ldirish lozimligi tushuntirildi. Ya'ni avval javob varaqasi uning tarkibiiy tuzilishi qayerda nima yozishhar bir bolaga tushunarli bo'lgach, savolnoma kitobchalari tarqatiladi va ish boshlanadi.

Bu yerda siz qiziqadigan bilim va mashg'ulotlarni aniqlashga qaratilgan bir nechta savollar berilgan. Bazi savollarni mazmuni sizga yaqin tushunarli, ularni yoqtirasiz yoki juda yoqtirasiz, ba'zi savollarda aks etgan mazmun sizga tanish emas, yoki yoqtirmaysiz. Shu sababli savollarga o'ylab javobgarlikni his etib javob bering. Bu yerda to'g'ri yoki nato'g'ri javob

bo'lmaydi. To'g'ri javobni faqat siz-o'zingiz bilasiz, bilganingizdek haqoniylilik bilan, to'g'ri javob bersangiz bo'lgani.

Agar siz savolda berilgan mashg'ulot yok faoliyat bilan shug'ullanishni yoqtirsangiz, u sizga yoqsa javob varaqasidagi shu savolga ajratilgan katakchaga plyus (+) belgisini qo'ying. Agar savol juda yoqsa siz aynan istagan ko'ngilizdagi faoliyat haqida bo'lsa unda ikkita (++) qo'yiladi.

Agar savolda sks ettirilgan mazmun sizga yoqmasa, bu faoliyat bilan shug'ullanishni kelajakda istamasangiz minus (-) qo'ying. Agar juda yoqmasa, unda ikkita minus (- -) qo'yishingiz mumkin. Va agar javob berishga ikkilansangiz yoqish-yoqmasligini bilmasangiz - unda nol javob bermaslikka va har bir sohaning yoqish-yoqmasligini, o'zingizga yaqin-uzoqligini aniqlab, ongli ravishda javob berishga harakat qiling.

Har bir savolga uzoq o'ylab o'tirmay va tushirib qoldirmay, diqqat bilan tez-tez javob bering. Marhamat boshladik.

Yuqori sinf o'quvchilari tayyorgarliklariga qarab 30-40 daqiqa va undan ham ko'proq vaqt davomida metodika savolariga javob berish bilan mashg'ul bo'ladi. Ba'zi savollar bolalar tomonidan mazmuni tushunarli bo'lmasligi mumkin. Bunday holatlarda tajriba olib boruvchi savol mazmuni qisqa so'zlarda sharhlab berish kerak. Umuman test o'tkazilish jarayonida sinfda ishchi muhitini yaratishi, sho'vqunga yo'l qo'ymasligi kerak. O'quvchilar barcha savollarga javob berib bo'lishgach, javob varaqasi va savolnomani topshirib sinfdan chiqib ketishlari lozim.

Ma'lumotlarni qayta ishlash.

Sitandart javob varaqasi ikkiga bo'lingan bo'ladi. Uning chap tomonidagi olti ustunda tekshirilayotgan o'quvchi o'z javobini yozadi. Javob varaqasini bu qismida 29 satirning 6 ustunda jami 174 ta nomerlangan katakcha bo'lib, har bir satirdagi javoblar ma'lum bir mazmun ya'ni muayyan qiziqish sohasiga tegishli javoblarni o'zida jamlaydi. Quyida sh sohalarni nomlari keltiriladi.

1. Bialogiya.
2. Geografiya.
3. Giyalogiya.
4. Meditsina.
5. Oziq-ovqat va yengil sanoat.
6. Fizika.
7. Kimyo.
8. Texnika.
9. Elektroradiotexnika.
10. Metalga ishlo berish.
11. Duradgorlik san'ati.
12. Qurilish.
13. Transport.

14. Aviatsiya daryo va dengiz transporti.
15. Harbiy mutaxassisliklar.
16. Tarix.
17. Adabiyot.
18. Jurnalistika.
19. Ijtimoiy faoliyat.
20. Pedagogika.
21. Huquq yurisprudensiya.
22. Savdo xizmat.
23. Matematika.
24. Iqtisod.
25. Chet tillari.
26. Tasviri san'at.
27. Sahna san'ati.
28. Musiq.
29. Fizkultura va sport.

Javob varaqasini o'ng tomonida uch ustun katakchalar pilyus bo'lib birinchi ustunning har bir katakchasiga tegishli satirdagi pilyus belgilarining yig'indi soni yozib chiqiladi. So'ng har bir satirdagi barch minus belgilari soni sanalib, yig'indisi ikkinchi ustunning tegishli katakchalariga yozib chiqiladi. Javob varaqasidagi nol belgilari inobatga olinmaydi. Shunday qilib ikkinchi ustuni esa har bir satirdagi minuslar soni bilan to'ldiriladi.

Agar biz har bir ustundagi plyuslar va minuslar sonining ayirmasini (agebraik yig'indisini) olib uchinchi ustunning tegishli katakchalariga yozib chiqsak, unda bolaning har bir qiziqishlar sohasining haqiqiy bahosini topgan bo'lamiz. Ushbu ko'rsatkichlar -12dan +12gacha oraliqda o'zgarishi mumkin. Uchinchi ustunda olingan ma'lumotlar o'quvchilarning 29 soha bo'yicha qiziqishlar ko'lemi sonlarda ifadalanuvchi muhim ko'rsatkichlar majmuasi sifatida foydalanilmoqda.

Bunga qo'shimcha qilib (30 ko'rsatkich sifatida) birinchi ustundagi plyuslar yig'indisidan o'rtacha qiziqishlar ko'rsatkichlar olinadi. Buning uchun barcha sonlar (plyuslar yig'indisi) jamg'ariladi va 29 ga taqsimlanib o'quvchining o'rtacha qiziquvchanlik saviyasi deb ataladigan ko'rsatkich olinadi. Bu ko'rsatkich alohida mazmunga ega bo'lib o'quvchini tashqi muhitga bo'lgan munosabatlarining faollik darajasidan ma'lumot beradi va maktab sharoiti uchun o'quvchilar va ota-onalar bilan ishlashda muhim ro'l o'ynaydi. Ushbu metodikaning javob varaqasi anch sodda tuzilgan va buni bir kun oldin sinov o'tkaziladigan guruhning o'ziga chizdirib olsa bo'ladi. Biroq metodik qo'llanmaga ilova qilingan savolnoma va javob varaqasida tegishli miqdorda nusxa olsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

XULOSA

Shaxsning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyati qobiliyatlar deyiladi. Qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar bo'lishi bilan birga: a) ularni shaxslarning mavjud boshqa xususiyatlariga, aqliy sifatlarga, xotira xislatlarga xarakter fazilatlariga, hissiy kechinmalariga va boshqalarga qarama-qarshi qo'yish mumkin emas; b) shuningdek, qobiliyatlarni shaxsning mazkur xususiyatlari bilan qatorga qo'yish, ularni ayniylashtirish ham nuqsonlarni keltirib chiqaradi. Shuni ta'kidlash joizki, mulohaza bildirilgan sifatlardan ba'zi biri yoki ularning yig'indisi faoliyat talablariga javob bera olsa yoki ularning ta'sirida vujudga kelsa, u holda shaxsning mazkur individual xususiyatlarini qobiliyatlar deb atash imkoniyati tug'iladi.

Iste'dod – bu har qanday u yoki boshqa faoliyat turlariga kiritilishi va shubhasiz har bir muayyan faoliyatning «muvaffaqiyatli» bajarilishiga jiddiy ravishda bog'liqligidir.

Iqtidor – bu biror bir qobiliyat rivojining yuqori darajasi. Iqtidorlilik – faoliyatni muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlovchi qobiliyatlarning sifatli o'ziga xos yig'indisi; aqliy salohiyat yoki intellekt; bilish imkoniyatlari va o'rganishga bo'lgan qobiliyatlarning individual tavsifi.

Iqtidorlilik tushunchasining sinonimi sifatida iste'dod, talant so'zlari ham ishlatiladi. Iste'dod, talant – nihoyatda zo'r qobiliyat, biror sohada yuksak darajadagi layoqat. U idrok, tasavvur, xotira, kuzatuvchanlik benihoya o'sganligida, voqea-hodisalarning yangi qirralarini, ularning zamiridagi murakkab aloqadorlikni kashf etishda ko'rinadi. Kishining bilimlarni o'zlashtirishi, nazariy va amaliy masalalarni hal etishi, ijodi, o'z bilimi va malakalarini turmushga tatbiq qila bilishidan uning iste'dodini bilish mumkin. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning muhim yo'nalishi ularni ijtimoiylashuvi bilan bog'liqdir. Ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta'siri ostida shakllanish jarayoni, bir-birlari bilan muloqotda bo'lishlarini ifodalasa, ijtimoiylashtirish tushunchasi esa, jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonidir.

Iqtidorli o'quvchilarning ijtimoiylashuvida quyidagi bosqichlarni hisobga olish alohida ahamiyat kasb etadi: 1) boshlang'ich jamoalashuv yoki moslashuv bosqichi. Bunda o'quvchi tomonidan ijtimoiy tajriba o'zlash-

tiriladi, moslashtiriladi va qabul qilinadi; 2) individuallashtirish bosqichi. Bunda o'quvchilarni o'z ustida mustaqil ishlashlari va mustaqil fikrlarini ruyobga chiqarishda o'zining mustaqil fikrini bildirish istagi, jamoat xulq normalariga nisbatan ijobiy hamda tanqidiy fikrlash paydo bo'ladi; 3) integratsion bosqich. O'quvchi jamiyatda o'zi o'rnini topish, jamiyat hayotiga kirishish, atrofdagilarga ijobiy tomondan tanilish, faoliyatda o'zini ijobiy tarafdin ko'rsatish harakatiga tushadi, ya'ni shaxs sifatida o'zini tanitish istagi birinchi o'ringa chiqadi.

Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash, ularni rivojlantirish, yanada taraqqiy topishiga yordam berish – oila, ta'lim muassasasi, o'qituvchilarning muhim vazifalaridandir.

Shunday ekan, quyidagi tavsiyalarga e'tibor berish lozim bo'ladi.

1. Iqtidorli bolalarning intellektual va faol talablariga doimiy ravishda to'sqinlik qilish, ularning ruhiy o'zgarishlariga, nevrozga va hattoki psixozga ham olib kelishi mumkin.

2. Shuni esda tutish kerakki, bola qanchalik iqtidorli bo'lgani bilan, uni o'qitish kerak. Ularni diqqatini jamlab o'tirishga, mehnat qilishga, mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatish lozim.

3. Iqtidorli bolalar ular ustidan o'tkazilgan bosimni, zo'rvonlik, do'q po'pisani ko'tara olmaydilar, bu esa turli muammolarga olib kelishi mumkin.

4. Iqtidorli bolalarni maktabgacha yoshidan boshlab, ijodiy mehnatga jalb qilish, ijod qilishi uchun sharoit yaratish, uni butunlay band qilish lozim. Iqtidorli bolalar o'z iste'dodlarini rivojlantirishlari uchun vaqtdan va vaziyatlardan bimalol foydalanishlari, kengaytirilgan o'quv rejasi asosida tahsil olishlari va o'z o'qituvchilari tomonidan individual tarzda diqqat va e'tiborga ega bo'lishlari talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2009. – 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni// «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» kitobida. – T.: Sharq, 1997. – B. 20-29.
3. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»// «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» kitobida. – T.: Sharq, 1997. – B.31-61.
4. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992. – 71 b.
5. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. – T.: O'zbekiston, 1995. – 24 b.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. – T.: O'zbekiston, 1997. – 138 b.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari – T.: O'zbekiston, 1997. – 315 b.
8. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. 7-jild. – T.: O'zbekiston, 1999.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
10. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 59 b.
11. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010. – 80 b.
12. Karimov I.A. Yuksak bilimli va intellektual rivjlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti. // «Ma'rifab» gazetasi, 2012 yil
13. «Barkamol avlod yili» davlat dasturi. – T.: O'zbekiston, 2010. – 80 b.
14. Baratov Sh. Ta'limda psixologik xizmat asoslari. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 1999. – 86 b.
15. Global ta'lim/O'qituvchilar uchun qo'llanma. – UNISEF, 2003. – 116 b.
16. Davletshin M.G. Qobiliyat va uning diagnostikasi. – T.: O'qituvchi, 1997. – 134 b.
17. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 1999. – 152 b.
18. Колобов О.А. Социальная работа как профессия. – Н-Новгород: ННГПИ, 1996. – С. 45.
19. Митина Л.М. Учитель как личность и профессионал (психологические проблемы). – М.: Дело, 1994. – 215 с.
20. Мудрик А.В. Введение в социальную педагогику. – Пенза, ПГУ, 1994. – 117 с.
21. Мудрик А.В. Основы социальной педагогики. – М.: АCADEMA, 2006. – 205 с.
22. Мудрик А.В. Социальная педагогика. – М.: Владос, 1999. – 219 с.
23. Мунавваров А.К. Ошла педагогикаси. – T.: Ўқитувчи, 1994. – 345 б.
24. Мустафаева Ф.А. Основы социальной педагогики. 2-изд. – М.: Пресс-Оптим, 2001. – 162 с.

25. Организационная социально-педагогическая деятельность социального педагога в образовательном учреждении /Методические рекомендации. Сост. В.Г.Дмитриева, Ф.П.Черноусова, И.В.Яркова. – М.: МГУ, 2004. – С. 101.

26. Psixologiya /Qisqacha izohli lug'at. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 1998. – 46 b.

27. Raximov B.X. Talaba - yoshlarni ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirish asoslari. Monografiya. –Toshkent: Fan, 2007.- 152 b.

28. Raximov B.X., Umarov H.E. Bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy izlanuvchanlikni shakllantirish // Xalq ta'limi.-Toshkent, 2005.-№6.-B. 47-49.

29. Raximov B.X., Raximova U.A. Zamonaviy universitetda talabalarining ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish // Xalq ta'limi.-Toshkent, 2006.-№2.-B. 56-60.

30. Raximov B.X. Zamonaviy universitetda talaba - yoshlarni IT1 ga yo'naltirish muammolari // Uzlüksiz ta'lim.-Toshkent,2007.-№3.-B. 12-13.

31. Рахимов Б.Х. К вопросу о привлечении студенческой молодежи к научно-исследовательской работе // Международный научный журнал академии наук России.-Балашов, 2007.- №1.-С.54-56.

32. Raximov.B.X. «Yosh olimlar» kengashi ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligi omili sifatida. Mejdunarodnyy nauchnyy jurnal.- Osh, 2007.- №3.-B.84-85.

33. Raximov B.X. Oliy ta'limning o'quv jarayonida talabalar ilmiy tadqiqot ishlari faoliyati // Xalq ta'limi.-Toshkent, 2007.-№6.-B. 47-48.

34. Рахимов Б.Х. Творческая практика будущего учителя // Педагогик махорат.-Бухоро, 2007.-№4.-Б. 32-36.

35. Рахимов Б.Х. Роль научно-исследовательской работы в подготовке высококвалифицированного специалиста // Международный научный журнал академии наук России.-Балашов, 2008.- №1.-С.28-30.

36. Raximov B.X. Oliy o'quv yurtlarida ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etishning ahamiyati // Xalq ta'limi.- Toshkent, 2008.- №4.-B. 20-25.

37. Raximov B. Talaba yoshlar ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish bosqichlari // Maktab va hayot. - Toshkent, 2008. -№7-8.-B.32-25.

38. Социальная педагогика и педагогическая социология (программа курса). – Т.: ТГПУ им Низами, 2003. – 10 с.

39. Социальная педагогика. Курс лекций /Учебное пособие для студ высш.учеб.заведений. Под общ. ред. М.А.Галагузовой. – М.: Гуманит. изд.центр Владос, 2001. – 162 с.

40. Социальная работа /Под общей ред. В.И.Курбатова. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. – 479 с.

41. Falsafa. Qisqacha izohli lug'at // Mas'ul muharir. A.Jalolov. – T.: Sharq nashriyot-matbaa kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004. – 383 b.

42. Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika / Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 229 b.

43. Egamberdieva N. Talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirishning zamonaviy yo'nalishlari /Uslubiy qo'llanma. – T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2009. – 46 b.

44. Egamberdieva N. Talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish texnologiyasi /Uslubiy qo'llanma. – T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2009. – 55 b.

MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	3
I bob. IQTIDORLI OʻQUVCHILAR BILAN ISHLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OʻZIGA XOSLIKLARI	
1.1. Oʻquvchilarning iqtidorini rivojlanishida qobiliyat va isteʼdod- ning oʻrni.....	5
1.2. Iqtidorli oʻquvchilar bilan ishlashning pedagogik-psixologik oʻziga xosliklari.....	12
II bob. IQTIDORLI OʻQUVCHILAR BILAN ISHLASHNING DIAGNOSTIK TIZIMI	
2.1. Iqtidorli oʻquvchilar bilan ishlashda qoʻllaniladigan diagnostik metodlar mazmuni.....	29
2.2. Iqtidorli oʻquvchilar bilan ishlashda diagnostik metodlardan foydalanish yoʻllari.....	42
Xulosa.....	55
Foydalanilgan adabiyotlar	57

**FOTIMA RAXMATOVA, NODIRA EGAMBERDIYEVA,
AZAMAT BAHRIDDINOV**

**IQTIDORLI O'QUVCHILAR
BILAN ISHLASHDA DIAGNOSTIK
METODLARDAN FOYDALANISH
YO'LLARI**

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2015

Muharrir:	M.Hayitova
Tex. muharrir:	M. Xolmuhamedov
Musavvir:	D.Azizov
Musahhiha:	N.Hasanova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Rahmatullayeva

E-mail: tipografiyacent@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.

Nashr.lits. AIN№149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi: 09.10.2015.

Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez Uz» garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 3,5. Nashriyot bosma tabog'i 3,75.

Tiraji 500. Buyurtma №139.

**«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.**

AC

F
TAN VA 
TEKNOLOGİYALAR

ISBN 978-9943-990-38-8



9 789943 990388